

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QATARGA KELDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Doha shahriga keldi.

Davlatimiz rahbarini Qatar Bosh vaziri o‘rinbosari, mudofaa ishlari bo‘yicha davlat vaziri Shayx Saud bin Abdurahmon Ol Soniy va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shayx Hamad nomidagi xalqaro aeroportda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordidi, ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi.

Tashrif dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Prezidenti 4-noyabr kuni Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi Jahon sammitida ishtirok etadi.

O‘ZBEKISTON — QATAR: KELAJAKKA QARATILGAN STRATEGIK SHERIKLIK

3-noyabr kuni O‘zbekiston Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan mazkur mamlakatga keldi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida Dohada bo‘lib o‘tadigan Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi jahon sammitida ishtirok etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Qatar diplomatik munosabatlari o‘rnatishdan tortib, siyosiy, savdo-iqtisodiy va humanitar sohalarida ishonch, o‘zaro hurmat hamda umumiy manfaatlarga

Davomi 3-betda

NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH, KIBERXAVFSIZLIK VA PROKUROR NAZORATI SOHALARIDAGI ISHLARNING SAMARADORLIGI YANADA OSHIRILADI

Prezident **Shavkat Mirziyoyev** millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish, kiberjinoatlarga qarshi samarali kurashish hamda prokuror nazoratini raqamlashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda narkojinoyatchilik butun insoniyat uchun yangi global xavf-xatarga aylanayotgani qayd etildi. Tahlillarga ko‘ra, dunyoda 400 milliondan ortiq odam bu illatga duchor bo‘lgan, uning oqibatida yiliga 300 mingga yaqin odam vafot etyapti.

Afsuski, mazkur illat mamlakatimizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Yil boshidan 11 mingdan ziyod narkojinoyat aniqlanib, 2,5 tonnaga yaqin giyohvand moddalar ushlab qolindi. Bunday jinoyatlarning shakli va turlari yildan-yilga ko‘payib, qamrovli ortib borayotgani narkojinoyat va giyohvandlikka qarshi kurashishni kompleks ravishda tashkil qilish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa ekanini ko‘rsatmoqda.

Yig‘ilishda sohadagi mavjud salbiy tendensiyalar tahlil qilindi.

Jumladan, keyingi paytlarda iste‘moli oson, yashirish va tarqatish qulay dori shaklidagi psixotrop va sintetik moddalar an‘anaviy narkotiklar o‘rmini egallamoqda, ularning tarqalishi asosan yoshlar orasida yuz bermoqda, sintetik narkotiklar yashirin narkolaboratoriyalarda tayyorlanib, internet orqali kontaktisiz shaklda o‘tkazilmoqda, narkotiklarni tarqatish manbasi bo‘lgan uyushgan jinoyatchilik transchegaraviy xususiyatga ega.

— Shu bois, milliy qonunchiligimizga mana shunday xavf-xatarlarning oldini olish, ularga qarshi ayovsiz kurashish, bunday illatni tag-

Davomi 2-betda

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI NATIJALAR HAMDA YANGI LOYIHALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident **Shavkat Mirziyoyev** orfan kasalliklariga chalingan bolalarga tibbiy yordamni yaxshilash, farmatsevtika sohasidagi islohotlarning ijrosi hamda yangi loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda irsiy va tug‘ma kasalliklar bilan tug‘ilishning oldini olish, kam uchraydigan (orfan) kasalliklarga chalingan bolalarga o‘z vaqtida tashxis qo‘yish va davolashga qaratilgan tibbiy hamda ijtimoiy yordam tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda 5 turdagi orfan va irsiy-genetik kasalliklarga chalingan jami 2174 nafar bola davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bepul diagnostika, dori vositalari va maxsus shifobaxsh oziq-ovqat bilan ta‘minlanmoqda.

Shu bilan birga, diagnostika qilish sifatining yaxshilanishi natijasida orfan kasalliklarining yangi turlari aniqlanmoqda va davolanishga muhtoj bolalarning soni ortib bormoqda.

Taqdimotda kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan 2026-2030-yillarda mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida axborot berildi.

Unga ko‘ra, endilikda davolanishi davlat hisobidan qamrab olinadigan kasalliklarning soni 5 tadan 10 taga kengaytiriladi, yosh chegarasi 18 dan 21 ga uzaytiriladi.

Dasturi amalga oshirish uchun 2026-2030-yillarda jami 961 milliard so‘m mablag‘ yo‘natilishi ko‘zda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari tegishli qarorni imzolab, dasturni tasdiqladi.

Shuningdek, Prezidentimizga farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, “Tashkent Pharma Park” farmatsevtika klasteri sanoat hududida

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I “KELAJAK MEROSI” XALQARO MUKOFOTINI TA’SIS ETISH TO‘G‘RISIDA

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan barpo etilayotgan Yangi O‘zbekistonning madaniy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, mamlakatimizning bu boradagi xalqaro obro’-e’tiborini yuksaltirishda qadimiy tarixiy merosimiz namunalari, madaniy boyliklar, ilmiy yutuq va innovatsion g‘oyalarni turli shakllarda, jumladan, ilmiy, adabiy-badiiy, tasviriy yo‘llar bilan faol targ‘ib etish, ularning nafaqat bugungi, balki kelgusi taraqqiyotimizga xizmat qiladigan ta’sirchan vositaga aylantirishga qaratilgan intilish va amaliy harakatlari bugungi kunda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Ana shunday g‘oyat keng qamrovli jarayonlarni Yer yuzidagi barcha xalqlar, jumladan, O‘zbekiston xalqining ezigu orzulari bilan bog‘lab, adabiyot, madaniyat, san’at, ilm-fan, ta’lim va raqamli texnologiyalar sohalarida yuksak natijalarga erishayotgan hamda milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojiga, global madaniy taraqqiyotga munosib hissa qo‘shib kelayotgan mahalliy hamda xorijiy ijodkor

kengashi tuzilsin, uning tarkibi hamda

asosiy vazifalari 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin. Madaniyat vazirligi Kengashning ischisi organi etib belgilansin.

5. Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda “Kelajak merosi” xalqaro mukofoti to‘g‘risidagi **nizomni** tasdiqlasin.

6. Tashqi ishlar vazirligi Xalqaro mukofoti xorijiy mamlakatlarda keng ommalashtirishga va g‘olib deb topilgan chet ellik ishtirokchilarning mamlakatimizga taklif etilishiga ko‘maklashsin, shuningdek, ularga kirish vizalarini, zarur hollarda “Toshkent” va “Samarqand” xalqaro aeroportlarida rasmiylashtirishni ta’minlasin.

7. Madaniyat vazirligi Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri, 2025-yil 3-noyabr

BEKOBODLIKLARNING ASRIY ORZUSI USHALDI

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan **Sirdaryo ustida muhtasham ko‘prik qurib bitkazildi**

1976-yil. Ushbu ko‘prik uchun ilk loyiha chizildi — aholi xursand bo‘ldi. Ammo u qaysidir stollar ustida e’tiborsiz qolib ketdi. Odamlarning hafsalasi pir bo‘ldi. 1989-yil. Ko‘prik qurilishi boshlanishi haqida yana gaplar tarqaldi. Hatto daryoga uchta beton ustun o‘rnatildi. Odamlar bu safar ham umid qildi. Biroq umidlar takror so‘ndi. Uchta ustun daryo chetida qaqqayib qolaverdi. 1990-yil. Ko‘prik qurilishi ham, u haqidagi umidbaxsh o‘ylar ham, gap-so‘zlar ham batamom tindi. Endi hech kim hatto orzu qilmay qo‘ydi.



Oradan qirg yilcha vaqt o‘tdi. Bu orada Bekobod tumani aholisi “daryolarning ul yuzida” qolgan qarindosh-urug‘larini, uzatilgan qizini, quda-andasini ko‘rish uchun 70 kilometr yo‘l bosib, Bekobod shahrini aylanib bardi. Bir varaq arizasini ko‘rsatish yoki kaftdek ma’lumotnoma olish uchun yana shuncha yo‘l bosib, tuman markaziga qatnayverdi.

Ayniqsa, og‘ir bemorlar, oy-kuni yaqinlashgan ayollar bu yo‘llarda ko‘p aziyat chekdi. Issiq-sovuq ma’rakalarda odamlar yo‘l azobidan yuragi orqaga tortardi. Shundoqqina narigi sohilda joylashgan ota uyiga birrov borib-kelish uchun kelinlar nari-beri 140 kilometr yo‘l yurib, tongda ketib, shomda zo‘rg‘a qaytdi. Va nihoyat...

Joriy yilning 31-oktabr kuni Bekobod tumani aholisi hayotida muhim sana sifatida tarixga muhrlandi. Boisi, uzoq yillar davomida xalq orziqib kutgan niyatlar ro‘yobga chiqdi. Prezidentimizning 2025-yil 24-iyuldagi tegishli qarorida ko‘zda tutilgan, juda qisqa muddatlarda zamonaviy andozalarda mustahkam qilib bunyod etilgan, Sirdaryo ustidan o‘tuvchi 200 metrli ko‘prik, unga tutash 6 kilometr yo‘l, ushbu infratuzilmaga uzukka ko‘z qo‘ygandek yarashgan, ko‘prik boshida qad ko‘targan namunaviy yangi mahalla binosi qurib bitkazildi.

Davomi 3-betda

Yuksak e’tirof

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING YO‘LI HAQIQIY DAVLAT ARBOBINING YO‘LIDIR

Xondker Muhammad TALHA, UNESCO Bosh konferensiyasi prezidenti:

— Bir paytlar o‘zbek shoiri Alisher Navoiy bilim va donolik insonning bezagidir, deb yozgan. Bu so‘zlar mohiyati O‘zbekiston Prezidentining faoliyatiga to‘la mos keladi. Chunki Shavkat Mirziyoyev bilim, ilm-fan, umumxalq manfaatlariga bag‘ishlangan yo‘lni mukammal ado etib kelmoqda. Bu qadriyatlar UNESCO ideallari bilan chuqur uyg‘undir.

O‘zbekiston Prezidentining yo‘li haqiqiy davlat arbobining yo‘lidir. Ilmiy bilim, ma’muriy donolik va o‘z mamlakati taqdiri uchun chuqur mas’uliyat hissini o‘zida birlashtirgan davlat arbobi o‘zining keng amaliy tajribasi va strategik qarashlariga tayanib, O‘zbekistonni rivojlantirishning zamonaviy

ISLOHOTLARNING AMALIY IFODASI: SAMARALI RAG‘BATLANTIRISH VA MANFAATDORLIK TIZIMI

Oziq-ovqat xavfsizligi dunyo miqyosida eng dolzarb masalaga aylanib borayotgan ayni sharoitda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasida mavjud resurslar va imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fermerlar faoliyatiga davlat tomonidan berilayotgan e’tibor ko‘lami yil sayin oshib borayotgani boisi ham aslida shu. Bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar, subsidiya hamda imtiyozli kreditlar misolida buni anglash mumkin.

Yurtimizda bu masala davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotir.

Tarixiy islohotlar, davlat siyosati darajasida belgilangan ustuvor maqsadlar, sohaning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘un rivojlanishi — ularning barchasi mamlakat agrosanoat kompleksini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Sohaga ilg‘or agroteknologiyalar, ilm-fan va innovatsiya yutuqlari keng joriy etilayotgani ijobiy natija berayotir. Soha vakillarining mashaqqatli mehnati rag‘batlantirilmoqda. Xalqona ibora bilan aytganda, nihoyat fermer va dehqonlarning ham yelkasiga o‘ftob tegadigan kunlar, davrlar keldi! Bu islohotlar nafaqat iqtisodiy faollikni

Davomi 4-betda



MADANIYAT VA TA'LIM MUHOFAZASI

INSONIYATNING MAS'ULIYATLI VAZIFASI

UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda o'tayotgan 43-sessiyasi xalqaro hamkorlik timsoli bo'libgina qolmay, insoniyat madaniyatining yagona ildizga egaligi, har qanday xalqning tarix sahnasida qolishi uning madaniyati va tilini saqlab qolishi bilan chambarchas bog'liq ekanini yana bir karra uqtirdi.

Ko'p asrlar davomida ilmu ma'rifat markazi bo'lib kelgan ko'hna va navqiron shahar bugun ham jahon xalqlarini tinchlik, hurmat va hamjihatlik ruhida birlashtirishda davom etmoqda.



Bu yerda butun dunyo uchrashmoqda



**Odri AZULE,
UNESCO Bosh direktori**

etmoqda. Umuman, qatnashchilar 4500 dan ziyod. Ana shu raqamning o'ziyoq haqiqatan, Samarqand sivilizatsiyalar chorrahasi, dunyo uchrashadigan joy ekanini ko'rsatadi.

Qadimiy shaharga UNESCO vakolati doirasida dunyo xalqlari uchun muhim masalalarni muhokama qilishga to'plandik. Bu vazifaning bugun nafaqat ushbu mintaq, balki geosiyosatda muhim o'rin tutayotgan O'zbekistonda ro'yobga chiqayotgani biz uchun juda muhim.

Samarqand asrlar davomida Sharq va G'arbni bog'lab turgan ma'naviyat va ilm markazi bo'lib kelgan. Shu bois, UNESCO konferensiyasining aynan shu

shaharda o'tkazilishi juda ramziy va tarixiy ahamiyatga ega. Bu nafaqat O'zbekistonning xalqaro nufuzi, balki uning madaniy-ilmiy hamkorlikdagi faol mavqeyini ham namoyon etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbuslar juda ilg'or va zamon talablariga javob beradi. Jumladan, sun'iy intellekt sohasidagi xalqaro hamkorlik, boshlang'ich va erta bolalik ta'limini rivojlantirish hamda yangi texnologiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha takliflar juda dolzarb.

UNESCO 2018-yildan buyon sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning



Milliy taraqqiyotning asosiy ustuni

2022-yildan buyon dunyoning eng nufuzli muzey va galereyalari, jumladan, Luvr muzeyi, Arab dunyosi instituti, Uffitsi galereyasi, Britaniya muzeyi, Xitoy milliy muzeyi va Berlindagi Muzey orolida yigirmadan ortiq yirik ko'rgazma tashkil qildik. Ushbu loyihalar tufayli O'zbekiston yangi — ijodiy, dinamik, hamkorlikka ochiq va o'z ovozigga ega mamlakat qiyofasini dunyoga namoyon etdi.

Bu yangilanish ichki ekotizimimizga ham ta'sir ko'rsatdi. Xususan, madaniyat va ijodiy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy qonunchilik bazasidan tortib, muzeylar, hunarmandchilik va zamonaviy san'at uchun yangi infratuzilmagacha bo'lgan jarayonlarni o'zgartirdi.

Bugun biz yangi madaniy muassasalar — uch ming yillik merosga ega Toshkentdagi Milliy muzey va yangi Zamonaviy san'at markazini — tajriba va fanlararo hamkorlik ertangi kunning badiiy ifodasini shakllantiradigan makonni barpo etmoqdamiz.

Shu yil sentabrda Buxoroda birinchi biennale bo'lib o'tdi. Unda yetmishdan ortiq xalqaro rassom eng qadimiy shaharda birlashdi. Merosni zamonaviy ijodkorlik platformasiga aylantirdi. Ushbu loyiha allaqachon Markaziy Osiyodagi eng

ilhomlantiruvchi va istiqbolli madaniy tashabbuslardan biri sifatida tan olingan.

Muzeylar xotira ombori emas, balki tasavvur va bilim, an'ana va innovatsiya uchrashadigan tirik, fikrlovchi organizmlardir. Ular o'tmish saqlanib qoladigan, qayta tiklanadigan makonlardir. U yerga keluvchi har bir inson muloqotning bir qismiga aylanadi.

Sun'iy intellekt davrida asosiy vazifamiz texnologiyaning insoniyatga xizmat qilishini ta'minlashdir. Sun'iy idrokdan oqilona foydalanilganda san'at haqidagi tushunchamiz boyiydi, madaniy merosga kirishni demokratlashtirish va ijodkorlik uchun yangi yo'llar ochiladi.

Biz bu texnologiyani empatiya va ta'limdagi sherik, muzeylarga yangi avlod bilan yangi tilda gaplashish imkonini beruvchi yordamchi sifatida ko'ramiz. Hukumatimiz 2030-yilga borib sun'iy intellekt sohasida dunyoning eng yaxshi 50 mamlakatidan biri qatoriga kirish maqsadini e'lon qildi. Olimlar,

“Prezident Shavkat Mirziyoyevning faol qo'llab-quvvatlovi tufayli madaniyat milliy taraqqiyotning asosiy ustunlaridan biriga, an'analar va innovatsiyalar, tarix va taraqqiyot o'rtasidagi ko'priikka aylandi.



innovatorlar va madaniyat arboblari birlashtirgan Sun'iy intellekt aliansini tuzdi. Bu shunchaki texnologik qadam emas, balki axloqiy va madaniy majburiyatdir.

O'zbekiston yaqinda UNESCO bilan birga fan, madaniyat va ta'lim sohasidagi ulkan yutuqlar uchun xalqaro Beruniy mukofotini ta'sis etdi. Buyuk alloma nomi bilan atalgan bu mukofot bilim va ijodkorlikning ajralmas qismi, ramziy ma'noda, insoniyatni vaqt va chegaralar bo'yab birlashtirishga umumiy ishonchimizni anglatadi. Qolaversa, barchamizni yagona maqsad sari birlashtirib, mehr-shafqat va madaniyat kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH, KIBERXAVFSIZLIK VA PROKUROR NAZORATI SOHALARIDAGI ISHLARNING SAMARADORLIGI YANADA OSHIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, voyaga yetmagan va yoshlar orasida giyohvandlikning diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimi tubdan takomillashtiriladi.

Taqdimotda 100 dan ziyod tezkor-profilaktik, tashkiliy-tarbiyaviy, targ'ibot-tashviqot chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi Giyohvandlik va narkojinoynatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan kompleks amaliy harakatlar milliy dasturi loyihasi davlat rahbari tomonidan ma'qullandi hamda bu borada uzluksiz ishlash tizimini joriy etish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda kiberjinoynatchilikka qarshi kurashish masalalari ham muhokama qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 31 milliondan ortiq aholi internetdan foydalanmoqda. Shu bilan birga, so'nggi besh yilda yurtimizda kiberjinoynatlar soni 68 barobarga ko'paygan. Joriy yilning o'zida 46 mingdan ortiq kiberjinoynat aniqlangan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 1,2 trillion so'mdan oshgan.

Fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari, bank kartalari va elektron imzolari bo'yicha amalga oshirilayotgan fribgarliklar soni keskin otib bormoqda. Jinoynatlarning katta qismi internet orqali amalga oshirilib, eng ko'p tarqalgan usullardan biri bank kartalari orqali sodir etilayotgan kiberfribgarlik hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumotlar himoyasi bo'yicha aniq mexanizm mavjud emas, ayrim tadbirkorlik subyektlari mijozlarning ma'lumotlarini ochiq bazalarda saqlamoqda. Davlat xizmatlari sohasida ham biometrik identifikatsiya va elektron raqamli imzoldan foydalanishda kiberxavfsizlik bo'yicha yetarli kafolatlar ta'minlanmagan.

Shuningdek, bank tizimida kiberhujumlarning oldini olish, shubhali pul operatsiyalarini aniqlash va tezkor chora ko'rish mexanizmlari yetarli darajada samarali ishlamayotgani ko'rsatib o'tildi.

Shu bois, taqdimotda sohaning huquqiy, texnologik va ilmiy-uslubiy asoslarini tubdan takomillashtirish zarurligi qayd etildi. Mutasaddilar bu borada ishlab chiqilgan yechimlarni bayon qildi.

Shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlashda kiberxavfsizlik talabini, bunday ma'lumotlarni shifrlab saqlash tartibini joriy etish, ma'lumotga ishlov beruvchi shaxslarning reyestrini yuritish, sohadagi huquqbuzarliklar uchun jazo choralarini kuchaytirish muhimligi qayd etildi.

Bank sohasida onlayn-mikroqarz ajratishda fribgarlar ta'sirini cheklovchi zamonaviy himoya tizimlarini joriy etish, fribgarlik natijasida jabrlanuvchining nomiga olingan mikroqarzni undan undirmaslik, shubhali bank hisobvaraqlarini bloklashni tun-u kun rejimida yo'lga qo'yishning mexanizmlari taklif qilindi.

Kiberjinoynatchilikning yangi turlari — smart qurilmalarga hujumlar, kriptoaktivlarni noqonuniy egallash kabi tahdidlarning oldini olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurligi ta'kidlandi.

O'ZA

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA SOHASIDAGI NATIJALAR HAMDA YANGI LOYIHALAR MUHOKAMA QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Taqdimot davomida farmatsevtika mahsulotlarining davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida ham axborot berildi.

Shifoxonalarda sifatsiz mahsulotlar xaridi va korrupsion omillarni bartaraf qilish maqsadida endilikda barcha davlat xaridlari “farma.xarid.uz” maxsus elektron tizim orqali amalga oshiriladi.

Mazkur elektron tizim ishga tushirilganidan so'ng davlat xaridlarida faqat ishlab chiqarish, yetkazib berish va mahsulot xavfsizligi bo'yicha barcha zarur sertifikatlarga (GMP, ISO:13485 GDP) ega ishtirokchilar qatnasha oladi.

Davlat xaridlari hajmlari hamda tegishli sertifikatlarga ega ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar reyestrlari jamoatchilik uchun ochiq bo'ladi. Davlat xaridlari jarayonida mahsulotlarning narxi belgilangan referent narxlaridan yuqori bo'lmasligi ushbu tizimda avtomatik tarzda tekshiriladi.

Davlatimiz rahbari 2026-yil 1-yanvargacha qadar ushbu tizim doirasida davlat tibbiyot muassasalarida dori vositalari va tibbiy jihozlar ehtiyojlarini shakllantirish hamda qoldiqlarni samarali boshqarish bo'yicha maxsus platformani ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimizga, shuningdek, aholini sifati, xavfsiz va samarador dori vositalari bilan ta'minlash maqsadida dori vositalari va tibbiy

Davlatimiz rahbari takliflarni ma'qullab, Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazining salohiyatini oshirish va kiberjinoynatlarga qarshi kurashish samaradorligini kuchaytirish, jumladan, ularni tezkor fosh etish bo'yicha yetti turdagi yangi ekspertizani joriy etish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi.

Soha va tarmoqlarni raqamlashtirishdan asosiy maqsad — byurokratiya va korrupsiyani kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash. Masalan, davlat xaridlarida tanlov va tenderlar raqamlashgani uchun shu yilning o'zida 7,5 trillion so'm tejaldi. Bugun aholi va tadbirkorlarga 1 mingga yaqin davlat xizmatlari masofadan turib ko'rsatilmoqda.

Shu bilan birga, yil boshidan buyon davlat organlari tomonidan 7 mingdan ziyod qonunga zid hujjatlar qabul qilangani, shuningdek, nazorat idoralarining faoliyatida 12,5 ming nafar tadbirkorning huquqi buzilgani ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan qonunlar ijrosi ustidan masofaviy nazorat tizimini yaratish, davlat idoralarida qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligini tekshirish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish zarur.

Taqdimotda Bosh prokuratura tizimida raqamli prokuror nazoratini joriy etish, tekshiruvlar va monitoring jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha takliflar haqida axborot berildi. Bu orqali qonun buzilishlarini erta aniqlash, mas'ul shaxslarning harakatlari real vaqt rejimida kuzatish hamda prokuror nazoratini shaffof va samarali tashkil etishning imkoni yaratiladi.

Hozirda tergovchilarning ishini baholash bo'yicha yagona tizimning yo'qligi, hisobotlarning “qo'lda” yuritilayotgani, jinoynat ishlarining hali ham qog'oz shaklida saqlanayotgani ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hisobot tayyorlash jarayoni bir haftagaicha vaqt olmoqda.

Yil boshidan buyon tergov organlari tomonidan 1300 ta qarorni qabul qilishda protsessual tartiblarga amal qilinmagani, kamchiliklar tufayli 637 ta jinoynat ishining materiallari sudlar tomonidan tergovga qaytarilgani ma'lum qilindi.

Shu bois, jinoynat haqida xabar kelib tushganidan tortib, sud qarori ijrosigacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish, tergov faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilandi. Bu tizim tergov jarayonini tezlashtiradi, inson omilini kamaytiradi va mas'uliyatni oshiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali sodir etilayotgan jinoynatlarning oldini olish uchun sun'iy intellekt, kiberhuquq va raqamli huquq yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni boshlash vazifasi qo'yildi. Bu orqali sohada zamonaviy tahlil usullaridan foydalana oladigan, raqamli xavf-xatarlarni oldindan aniqlaydigan va ularga samarali javob berishga qodir professionallar qatlamini shakllantirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA

jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning yangi tartibi taqdimot qilindi.

Unga ko'ra, dori vositalarini texnologiyalar transferi orqali ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Xorijiy farmatsevtika kompaniyalari tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning quvvatlaridan foydalanilgan holda ishlab chiqarish va tezlashtirilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish imkoni yaratiladi.

Yangi turdagi, biotibbiy hujayra mahsulotlar qatoriga kirgan, shikastlangan to'qimalarni davolash, a'zolarining qismlarini o'qirish, organizmning funksional imkoniyatlarini tiklash uchun qo'llaniladigan dori vositalarini tibbiyot amaliyotiga tatbiq qilish imkoniyati yaratiladi.

“Djenerik” dori vositalarining klinik sinovlarni o'tkazish va natijalarini baholash xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshiriladi hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish muddatlari qisqartiriladi.

Endilikda xavfsizlik klassifikatsiyasi bo'yicha 1-sinfga mansub tibbiy jihozlar laboratoriyasi sinovlaridan (steril, o'lchov vositali va invaziv tibbiy jihozlar bundan mustasno) va klinik tadqiqotlardan o'tkazilmaydi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni ma'qullab, 2025-yil yakuni bo'yicha 166 million dollarlik 32 ta investitsiya loyihasini to'liq ishga tushirib, 1500 ta yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini yanada oshirish, reitseptli doriolarning narxlarini tushirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

O'zbekiston va UNESCO munosabatlari yuqori bosqichda



**Stefaniya JANNINI,
UNESCO Bosh direktori
o'rinbosari**

O'zbekistonning kasbiy ta'lim sohasiga yo'naltirilgan siyosati mamlakatimizda ta'limning boshqa yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan tashabbuslar bilan uzviy bog'liq. Erta bolalik va bolalar parvarishi masalalari bo'yicha markaz loyihasi shular jumlasidan. U ilmiy tadqiqotlar va tajriba almashish borasida mintaqaviy platformaga aylanadi.

Qolaversa, ikki yildan so'ng O'zbekistonda Texnik va professional ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha Butunjahon konferensiyasi o'tkaziladi. Ushbu xalqaro forumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda UNESCO asosiy hamkor bo'ladi.

Bu tadbir nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo uchun muhim ahamiyatga ega. Bugun yoshlarga ishlash va hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur ko'nikmalarni beradi. Muhimi, texnik va kasbiy ta'limga e'tibor zamonaviy global chaqiriqlar — “yashil iqtisodiyot”ga o'tish va raqamli texnologiyalar rivoji bilan chambarchas bog'liq. Bunday dasturlar yoshlarga amaliy ko'nikmalarni egallash, mehnat bozorida talab yuqori sohalarni o'zlashtirish va tez o'zgarayotgan dunyoga moslashish imkonini beradi.

O'zbekistonning sa'y-harakatlari uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishga qaratilgan, ya'ni bolalik davridan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichni qamrab oladi. Bu jarayonda mamlakatning Malakalar va darajalarni tan olishga oid xalqaro konvensiyaga qo'shilgani ham katta ahamiyat kasb etdi.



Bunyodkorlik

BEKOBODLIKLARNING ASRIY ORZUSI USHALDI

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Sirdaryo ustida muhtasham ko‘prik qurib bitkazildi

Ko‘prik ishga tushishi bilan Do‘stlik va Yangio‘l mahallalari aholisi uzoq yillar davomida qiynalgan katta muammodan bir umrga qutuldi. Eng muhimi, daryoning narigi tomonidagi mahallalar markaz bilan eng yaqin yo‘l orqali bog‘landi.

Boshlanishi 1-betda

Shu kuni tumaning “Do‘stlik” va “Yangio‘l” mahalla fuqarolar yig‘inini, kengroq ko‘lamda aytisak, tumanni avvalo, Bekobod shahri va hatto Sirdaryo viloyatining Shirin shahri bilan bog‘lovchi, daryoning narigi tomonidagi 7 ta mahallada istiqomat qilayotgan 40 mingdan ziyod aholining tuman markazigacha bosib o‘tadigan masofasini 44 kilometr qisqartiruvchi ko‘prik va unga tutash avtomobil yo‘li hamda mahalla markazi binosining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbir tom ma’noda katta to‘yga aylanib ketdi. Daryoning har ikki sohilidan aholi yog‘ilib kelib, ota-bobolari orzu qilib o‘tib ketgan ushbu ko‘priknı o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishga oshiqdi.

Kimlardir hamrohiga, boshqalari poytaxtdan kelgan jumalistlarga bugungi kun quvonchini, ushbu yangi obyektlar ahamiyatini tushuntirishga, eng muhimi, xalq qalbidagi shodlikni ifodalashga baholi qudrat harakat qiladi.

Hammaning ko‘zida bugungi kundan rozilik, xalqchil islohotlardan minnatdorlik, o‘z hayotida sodir bo‘layotgan mana shunday yangiliklardan sevinish alomatları ufuradi.

Prezidentimizning **“Xalqimiz ertaga emas, olis kelajakda emas, aynan bugun yaxshi yashashi kerak!”** degan qat’iy talabining amaliy tasdiq’ini ko‘rib, keksayu yosh birdek to‘lqinlangan.

Tarixdan yo‘l va ko‘prik qurilishi insoniyatning eng ezgu ishlaridan biri hisoblangan. Katta saltanatlar taraqqiy topganda yoki tanazzulga yuz tutganda ham, madaniyatlar bir-biri bilan uyg‘unlashganda ham yo‘llar yashagan, ko‘priklar esa insonlarnı uzviy bog‘lab turgan. Chunki yo‘l — jo’shqin hayot ramzi. Yo‘l bor joyda harakat bor, harakat bor joyda esa rivojlanish, imkoniyat va sivilizatsiya bo‘ladi.

Qadimgi Rimni qudratli imperiyaga aylantirgan kuch uning legionlari emas, avvalo, minglab kilometrga cho‘zilgan, bir-birini bog‘lab turgan mustahkam yo‘llar edi. Yo‘l va ko‘priklar orqali tovar, ilm, madaniyatlar almashgan va keng tarqalgan. Yurtimizdan o‘tgan Buyuk ipak yo‘li ajdodlarimizning dunyoga ochilgan eshigi, xalqlarnı bir-biriga bog‘lagan vosita bo‘lgan.

Karvonlar bir qit’adan ikkinchisiga yurganda xalqlarning tafakkuri, ixtirolari va madaniy boyliklarini ham bir-biriga yetkazgan. Ko‘priklar esa faqat ikki qirg‘oqni emas, ikki el orzularini, maqsadlarini birlashtirgan. Shu bois, ajdodlarimiz ko‘prik qurishni savobli, yo‘l

ochishni esa eng ulug‘, xayrli amallardan biri sifatida biladi.

Aytish joizki, Bekobod tumanining Sirdaryoning narigi qirg‘og‘idagi 40 ming aholisi turmushida aynan yo‘l bilan bog‘liq uzoq yillik qiyinchiliklar bo‘lgan. Ilgari odamlar aylanma yo‘llardan yurishga majbur edi, har safar asab, vaqt va ortiqcha xarajat sarf bo‘lardi. Hatto tuman markazidagi tadbirlarga borish mashaqqatga aylangan. Masofa uzun bo‘lsa, inson hayoti ham og‘irlashadi.

Bundan tashqari, o‘rtada ko‘prik yo‘qligi sabab aholi oddiy bozor-o‘char qilish uchun tuman markaziga emas, Sirdaryo viloyatining Guliston yoki Boyovut tumanlariga borishga majbur edi.

Bugun ana shu iztirobli kunlar ortda qolmoqda. Shunday paytda qisqargan har bir kilometr odamlarning ko‘ngliga yorug‘lik, xotirjamlik olib kirdi. Masofa qisqardi, demak, odamlarning mehnat unumdorligi oshdi, yuzlariga tabassum ufurdi, kundalik mushkulolari yengillashdi. Ularning barchasi eng chekka va olis hududlardagi aholining tashvishlarini ham bilib turgan, ularning muammolariga amaliy yechim topib bergan davlatimiz rahbaridan minnatdor.

— Bekobod tumani ahlining ko‘p yillik orzulari ushaldi. Bu yo‘llar, yangi ko‘prik hamda zamonaviy mahalla qiyofasi bugun hech qaysi shahardan kam emas. Ushbu

subhatlashayotgan mahalladoshlarnı ko‘rib, dilimizdan bir gap o‘tdi: “Bu ko‘prik — avlodlar orzusi, deganlaricha bor ekan...”.

Endi odamlar olisdagi qarindosh-qondoshlarining to‘y-u ma‘rakalarida o‘z vaqtida qatnasha oladi.

— Ko‘prik xalqning bir necha o‘n yillik orzusi ekaniga guvohman, — deydi “Nuroni” jamg‘armasi Toshkent viloyati bo‘limi raisi Abdusamad Nosirov. — Buning uchun ko‘p harakat qilishganini eshitganman. Ming afsuski, muammo o‘tgan asrning 80-yillar oxiridan buyon hal bo‘lmagan. Bugun mazkur inshoot barpo etilgach, odamlar qalbida yangi O‘zbekiston viyosatiga, xalq qadri, manfaatiga xizmat qilishga qaratilgan ezgu g‘oyaga yana bir karra ishonch uyg‘ondi.

— Bu ko‘prik bizni yo‘l azobidan qutqardi, — deydi “Yangio‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini faoli Sobira Toshboyeva. — Qarindoshlarimiz, quda-andamiz daryoning bu qirg‘og‘ida yashaydi. Sog‘insak ham bir-birimizning holimizdan tez-tez xabar ololmasdik. Yonimizdagi mahallaga bir shahar aylanib kelardik. Quvonganimdan ichimga sig‘may ketayman. Bo‘lar ekan-ku.

Sirdaryoning ikki sohilini bog‘lagan yangi “belbog‘” aslida insonlarning do‘stlik rishtalari timsoliga aylandi. Bugun “Do‘stlik” va “Yangio‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi hammdan ko‘proq xursand. Ularning yuz-



ko‘prik uzoq yillar xalqimizga xizmat qilsin. Quvonchingizga sherikman, — dedi ochilish marosimidagi nutqida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzaev.

Bu ko‘priknıng ochilishi shunchaki rasmiy tadbir emas, minglab odamlar o‘z xohishi, ishtiyoqi bilan yig‘ilgan katta xalq sayliga aylanib ketdi. Bir-biri bilan quchoq ochib ko‘rishayotgan, “muborak bo‘lsin”, “tabriklayman” deb o‘zaro samimiy

ko‘zidagi quvonch, shukronalik hissingin o‘z sababi hamda uzoq tarixi bor.

Tumanning o‘rtasidan oqib o‘tuvchi Sirdaryo ustidan ko‘prik qurilishi Prezidentimiz tashabbusi va topshirig‘iga binoan joriy yilning may oyida qayta boshlandi.

Mazkur ko‘prik 2025-yil sentabr oyida hamda unga olib boruvchi ikki tomonlama (6 kilometr) yo‘l va pıyodalar yo‘lagi oktabr oyida qurib bitkazildi.



Yangi ko‘prik hamda unga tutash avtomobil yo‘lida lotok (suv qochirish novlari), tungi yoritish chiroqlari o‘natildi, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun pıyodalar yo‘lagi qurildi hamda avtomobil yo‘li kengaytirildi. Mavjud yo‘l rekonstruksiya qilingan holda 1,4 kilometr qismi 2 tasmalidan

4 tasmaliga o‘tkazilib, asfalt yotqizildi. Qolaversa, mazkur o‘zgarishlardan so‘ng avtomobillar harakati jadalligi bir kecha-kundagi 2 mingtadan 14 mingtagacha oshdi bu — 7 barobar o‘shish demakdir.

— Bu ko‘priknıng, unga tutash yo‘lning nechog‘liq muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anglayman, — deydi Yangio‘l mahallasida yashovchi mehnat faxriysi Tohir Yangiboyev. — Yoshim saksonga yaqinlashdi. Shu paytgacha o‘z mehnatim va salohiyatimni tumanimizni rivojlantirish, obodligiga hissa qo‘shishga bag‘ishladim. Uzoq yillar davomida tuman markaziga borish zarurati tug‘ilsa, kunimiz shu bilan o‘tib ketardi. Yo‘l uzoqligi va noqulay joylashuvi tufayli shundoqqina Sirdaryoning narigi tomonida yashovchi qavm-qarindoshlar holidan ham tez-tez xabar ololmasdik. Bugun esa quvonchimizning cheki yo‘q, bu biz uchun do‘stlik va diydor ko‘prigi hamdir. Mana, endi uzoq’imiz yaqin bo‘ldi. Odamlarning xursandligini qarang. Har birining nigohida ona vataniga samimiy mehr-muhabbat, Prezidentimizga minnatdorlik va islohotlarga daxldorlik tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘lib turibdi.

Shu yil 14-oktyabr kuni Prezidentimiz raisligida mahalla tizimini yanada takomillashtirish va joylarda ishlarnı samarali tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tgandi. Yig‘ilishda davlatimiz rahbari islohotlarning ostonasi bo‘lgan har

bir mahallaga yangi O‘zbekiston nafasini olib kirish, “mahalla yettilligi”ning yagona jamoa bo‘lib ishlashi borasida muhim tashabbuslarnı ilgari surgandi.

Bunda joylarda kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ajrimlarnı kamaytirish va uyushmagan yoshlar bilan ishlash samaradorligini, tomorqa madaniyatini oshirish va mahallalar ixtisoslashuvidan kelib chiqib, yangi imkoniyatlarnı ishgа solish, aholini ommaviy sportga jalb etish kabi ko‘plab masalalar hududlardagi muhim bo‘g‘in — aynan “mahalla yettilligi” tomonidan yangi bosqichga olib chiqilishi zarurligi ko‘zda utilgan.

Shu ma’noda, tadbir davomida “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘inining yangi binosi foydalanishga topshirilgan, “mahalla yettilligi” hamkorlikda ishlashi, aholining muammolariga ijobiy yechim berishda yangicha mexanizm yaratilgani yuqoridagi tashabbus va vazifalarning amaldagi ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini markazi endi faqatgina ko‘rkam bino emas, balki aholi hayotiga tubdan ijobiy ta’sir etuvchi, yaqin atrofda joylashgan “Yangio‘l”, “O‘zbekiston”, “O‘rikzor”, “Xos”, “Yoshlik”, “Qo‘rg‘on”, “Ilg‘or” kabi MFYlar aholisiga ham xizmat qiluvchi taraqqiyot o‘chog‘i sifati faoliyat ko‘rsatadi.

Mahalla binosi bilan baqamti quriladigan o‘quv markazi, tikuvchilik sexi, futbol va vorkaut maydonlari, kottejlar va sayilgoh singari inshootlar nafaqat hudud infratuzilmasini yanada ko‘rkamlashtiradi, balki aholi, ayniqsa, yoshlar uchun chinakam ko‘makchi bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday shart-sharoitlar bilan endi Bekobod tumanida ishsizlik va kambag‘allikka to‘liq barham berish, uni sanoat va xizmatlar rivojlangan hududga aylantirish uchun barcha resurs hamda imkoniyatlar ishgа solinishi shubhasiz.

Ochilish marosimida “Yashil makon” umummilliy loyihasining bu yil kuzgi mavsumi doirasida avtomobil yo‘li bo‘ylariga yuzlab manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi. Ushbu ezgu harakat shu kuni butun tumanda ham davom etdi. Bekobodliklar davlatimiz rahbarining tuman aholisiga qilgan tuhfasiga javoban xonadonlari, ko‘cha va guzarlar, ariq bo‘ylariga ko‘chatlar ekish, o‘z hududlarini obod qilishga yangi g‘ayrat-shijoat bilan kirishdi.

Mahalla yoshlari o‘rtasida yangi yo‘l va ko‘prik bo‘ylab tashkil etilgan yugurish musobaqalari, milliy xalq qo‘shiqolari ijrochilari chiqishlari, karnay-surnay sadolari hamda samimiy tabrik so‘zlari yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. Rasman ochilgan ko‘prik ustidan ikki tomonlama harakat boshlandi.

Ko‘prik ishgа tushishi bilan Do‘stlik va Yangio‘l mahallalari aholisi uzoq yillar davomida qiynalgan katta muammodan bir umrga qutuldi. Eng muhimi, daryoning narigi tomonidagi mahallalar markaz bilan eng yaqin yo‘l orqali bog‘landi.

Bu esa, o‘z navbatida, zarurat bo‘lganda tibbiy xizmatlardan vaqtida foydalanish, aholining ishgа, bozor va xizmatlarga oson chiqishi, xarajatlar kamayishi, transport oqimi jadallashishi, iqtisodiy aloqalar kuchayishiga imkoniyat yaratadi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, yo‘lkira, yoqilg‘i kabi birlamchi omillar iqtisod qilinishi hisobiga aholining yiliga 8 milliard so‘mi tejallishi mumkin. Hozirgacha behuda sarf bo‘lib kelgan vaqt va asablarnı inobatga olsa, aholi uchun ushbu obyektning qadri, hayotiy ahamiyati qanchalik baland ekanini yaxshi anglash mumkin.

Bu kunlar rostdan ham tuman aholisi uchun katta to‘y. Keng va ravon yo‘llar bo‘yida daraxtlar saf tortib turibdi, mahallalarning qiyofasi tubdan o‘zgargan, bu odamlar kayfiyatida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Zero, Prezidentimiz jahon miqyosidagi har bir chiqishida, jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi, UNESCO Bosh konferensiyasining Samarqandda bo‘lib o‘tayotgan 43-sessiyasi, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III Xalqaro forumi kabi g‘oyat nufuzli anjumanlarda ijtimoiy farovonlikni ta‘minlash, xalqning turmush darajasini yaxshilash, ehtiyojmand aholini samarali himoya qilish, “Inson qadri” tamoyili asosida barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish yangi O‘zbekistonda doim ustuvor vazifa bo‘lib qolishini takror-takror ta’kidlab kelmokda.

Bugun Bekobod tumanida foydalanishga topshirilgan muhtasham ko‘prik, yangi yo‘llar va zamonaviy mahalla markazi xalq uchun, uning buguni va ertangi hayoti yanada yaxshilanishi uchun amalga oshirilgan ezgu ishlardan yana bir tarixiy namundir.

Rashid XO‘JAMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON — QATAR: KELAJAKKA QARATILGAN STRATEGIK SHERIKLIK

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi yillarda yuqori va oliy darajadagi muloqotlar faolligi sezilarli darajada oshdi. 2024-yil aprel oyida Toshkentda imzolangan Strategik hamkorlik to‘g‘risidagi bitim ikki davlat hamkorligi solnomasida muhim voqea bo‘ldi va mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi bosqichini belgilab berdi. Hujjatda investitsiyalar, energetika, transport, ta’lim va madaniyat sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilgan.

2023-yil iyun va dekabr oylarida Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniyning O‘zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashriflari hamda shu yil oktyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Dohaga qilgan davlat tashrfi ikki mamlakat munosabatlarida yangi bosqichni boshlab berdi hamda Toshkent va Doha sherikligiga strategik yo‘nalish baxsh etdi.

Oliy darajadagi muloqot xalqaro forumlar doirasida ham izchil davom etmoqda. Jumladan, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash sammiti, Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi sammiti

hamda boshqa yirik global tadbirlarda tomonlar faol ishtirok etdi.

Hamkorlik faollashganining yorqin namunasi 2023-yil may oyida Toshkentda Qatar elchixonasi, shu yil dekabr oyida esa Dohada O‘zbekiston elchixonasi ochilishi bo‘ldi. Bu qadamlar siyosiy va diplomatik munosabatlari yangi, sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarilganini anglatadi.

Siyosiy muloqotda muhim ahamiyatga ega voqea sifatida, shuningdek, Qatar Bosh vaziri, tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdurahmon Ol Soniyning 2024-yil aprel oyida O‘zbekistonga tashrifini qayd etish mumkin. Qatar hukumati rahbarligidagi delegatsiyani Prezident Shavkat Mirziyoyev qabul qildi. Suhbat chog‘ida siyosiy muloqotni mustahkamlash, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, energetika, transport, ta’lim va madaniyat sohalaridagi sheriklik masalalari muhokama qilindi.

Tashrif davomida Shayx Muhammad bin Abdurahmon Ol Soniy Toshkentda O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov bilan ham muzokaralar o‘tkazdi. Tomonlar ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, shu jumladan, doimiy siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazish masalalarida o‘zaro qiziqishni tasdiqladilar.



O‘z navbatida, 2024-yil mart va oktabr oylarida tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov rasmiy tashrif bilan Qatarga bordi. Safar doirasida O‘zbekiston TIV rahbari Qatar Bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdurahmon Ol Soniy, Qatar Investitsiya agentligi hamda yirik kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Muzokaralar chog‘ida iqtisodiy aloqalarnı kengaytirish, qator qo‘shma

loyihalarga Qatar sarmoyasini jalb etish va transport-logistika sohasida hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Qatar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarnı rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2024-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar aylanmasi 7,7 million AQSH dollarini tashkil etdi, shundan eksport 2,2 million, import esa 5,5 million dollarga yetdi. 2025-yil yanvar-avgust

oylarida o‘zaro savdo hajmi 28 foiz o‘sib, 7 million dollardan oshdi. Eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari, mis quvurlar va xizmatlar yetakchilik qilsa, importda kim-yosiy mahsulotlar va moylash materiallari asosiy o‘rinni egallamoqda.

2024-yil 11-12-noyabr kunlari Dohada Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyaning ilk yig‘ilishi o‘tkazilishi muhim qadam bo‘ldi. Shuningdek, 2024-yil iyun oyida “Qatar Airways” aviakompaniyasining Doha — Toshkent — Doha yo‘nalishi bo‘yicha birinchi aviareysi amalga oshirilib, ishbilarmon va sayyohlik aloqalari uchun yangi imkoniyatlar ochildi.

Gumanitar va madaniy aloqalar tomonlar o‘rtasidagi sheriklikning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi va ushbu jabhadagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Pandemiya davrida Qatar xayriya jamg‘armalari O‘zbekistonga qariyb 400 ming AQSH dollari qiymatida beg‘araz yordam ko‘rsatdi.

So‘nggi yillarda madaniyat va hunarmandlik haftaliklari, ko‘rgazmalar va konsertlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. 2024-yilda Dohada O‘zbekistonning madaniyat, hunarmandlik va turizm haftaligi, Toshkentda esa Qatar madaniyat haftaligi bo‘lib o‘tdi. Toshkentdagi tadbir ochilishida

Qatar madaniyat vaziri Shayx Abdurahmon Ol Soniy ishtirok etdi.

Ta’lim sohasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yil sentabr oyida Qatar moliyaviy ko‘magida Termiz ta’lim markazi bazasida afg‘on ayollarini o‘qitish bo‘yicha kelishuv imzolandi.

Toshkent va Doha o‘rtasidagi siyosiy muloqot, iqtisodiy sheriklik va gumanitar aloqalar izchil rivojlanish dinamikasiga ega. Erishilgan kelishuvlarning samarali amalga oshirilishi ikki davlat munosabatlarnı sifat jihatidan yangi bosqichga — uzoq muddatli istiqbol va mintaqaviy barqarorlikka qaratilgan strategik hamkorlik darajasiga ko‘tardi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qatarga davom etayotgan rasmiy tashrfi va uning Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha ikkinchi jahon sammitidagi ishtiroki mamlakatimiz tashqi siyosatining izchil davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mazkur tashrif Yaqin Sharq mamlakatlari bilan o‘zaro tushunish va ishonchnı mustahkamlashga hamda Toshkent va Doha o‘rtasida har tomonlama, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA



2025-yil 4-noyabr, 225-son

KO'ZGU



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Tahlil



ISLOHOTLARNING AMALIY IFODASI: SAMARALI RAG'BATLANTIRISH VA MANFAATDORLIK TIZIMI

texnologiyalarni keng joriy etish bilan bog'liq islohotlari alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Albatta, ochiq aytish kerak, bu yil ham ob-havo sharoitidan tortib, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga qadar barcha jarayonlar oson kechmadi. Uch faslda tun-u kun qilingan halol mehnat samarasi kuz mahali xirmonda ma'lum bo'lganidek, joriy yilda o'rib, yig'ib-terib olingan hosil cho'g'i chakki bo'lmadi. Shunday paytdagina anglaysiz, fermerning ko'ngli to'q, zimmasidagi shartnomaviy majburiyatni bajarmoq hissi uning mehnatini yanada qadrli qiladi.

Paxtachilik sohasida ham bu yil chin ma'noda inqilobiy o'zgarishlar yuz berdi: tabiat inijliklariga qaramay, fermer va dehqonlar respublika bo'yicha 875 ming



yordamida hosilni o'z vaqtda va sifatli yig'ib olish imkoni tug'ilyapti. Bu nafaqat ish jarayonini yengillashtirmoqda, balki fermerlarning mehnat unumdorligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Joriy yilgi paxta hosilining ikki million tonnadan ortig'i yoki 52 foizi zamonaviy terim mashinalari ko'magida yig'ib olingani quvonarli hol. E'tiborlisi, ishchi kuchi nisbatan taqchil bo'lgan Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida qariyb 90 foiz paxta hosili mashinalarda terib olindi.

Davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlardan yana biri — paxta terish mashinalarining aksariyat qismini fermerlar lizing shartlari asosida xarid qildi. Joriy mavsumda har bir mashina o'rtaacha 800-1000 tonna paxta terdi. Terish traktorlari terim xarajatini 1,5-2 barobargacha kamaytirish bilan birga qisqa muddatlarda hosilni sifatli yig'ishtirib olish imkonini ham berdi.

Bugun qishloq xo'jaligi sohasiga daxldor tadbirkorlar, fermerlar, avvalo, amaldagi qonunlar hamda qabul qilingan farmon va qarorlar asosida yaratib berilgan ulkan imkoniyat va qulay sharoitlardan unumli foydalanmoqda. Xususan, shu yilning mart oyida Prezidentimiz imzolagan farmonga muvofiq, fermer xo'jaliklarining soliq qarzdorligi bo'yicha hisoblangan penyalari bekor qilingani va ijro ishlari to'xtatilgani ham katta moliyaviy ko'mak bo'ldi.

Darhaqiqat, ushbu hujjatga muvofiq, paxtadan gektariga 50 sentnerdan, g'alladan 80 sentnerdan yuqori hosil olgan fermerlarga qator imtiyozlar berildi. Bu ham, o'z navbatida, yuqori natijadorlikka erishishda kuchli rag'bat bo'lmoqda.

Shuningdek, bu yilgi mavsumda har bir tonna terib olingan va sotilgan paxta xomashyosi uchun bir million so'mdan subsidiya ajratilishi haqida qaror qabul qilingani ham fermerlar uchun o'ziga xos g'amxo'rlik namunasi bo'ldi. Bu dalala mashaqqat bilan yetishtirilgan mo'l hosilni nobud qilmasdan yig'ishtirib olishga rag'bat berish bilan birga fermerlar daromadini ko'paytirish va

natijaga erishishda, avvalo, davlatning qo'llab-quvvatlovi hamda zamonaviy texnologiyalar asosida ish yuritilishi asosiy omil bo'ldi. Bu esa nafaqat fermerlar, balki butun xalqimiz farovonligiga, bozorlarimiz to'kin-sochiligiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Birgina misol. Bu yilgi mavsumda paxta xomashyosi yetishtirgan 28 mingdan ortiq fermer xo'jaligi tasarrufidagi dalalarda qariyb bir yarim million qishloq aholisi, jumladan, vaqtincha ishsiz fuqarolarimizning qo'shimcha daromad topishi uchun keng imkoniyat yaratib berildi.

Yana bir yangi innovatsion yondashuvni alohida ta'kidlab o'tmoq joiz, ya'ni mahalliy navlardan tashqari xorijdan keltirilgan paxta navlari ham sinovdan o'tkazildi. Respublikamizning ko'plab tumanlarida fermerlar har bir gektar paxta ekilgan maydondan 50-60 sentnerdan, hatto qator ilg'or fermer xo'jaliklari 80 sentnerdan oshirib paxta hosili yetishtirdi. Bunday kutilmagan natija yaqin davrlarda bo'lganmidi? Albatta, yo'q.

Bunday yuqori ko'rsatkich avvallari orzu edi. Ilgari 40 sentner paxta hosili yetishtirish eng katta natija hisoblanardi. Shunday natijani

yo'q. Ayniqsa, qator fermerlarimiz bu yil nav tanlashda adashmagani, paxta agrotexnologiyasi va urug'chiligida ilg'or yondashuvlar joriy etilgani uchun bunday tarixiy yutuqlar qo'lga kiritilganini teran anglab yetmoqda.

Tabiiyki, qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlar zamirida, avvalo, yurtimizning agrar tarmog'ida, xususan, paxtachilikda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda zamonaviy yondashuvlarning amaliy natijasi yotibdi.

Bu yil ham kuzatilganidek, eng yuqori hosildorlikka erishgan fermer xo'jaliklari soni tobora ortib borayotir. Bunday yuqori

gektar maydonda umid bilan chigit qadagan edi. Shundan 260 ming gektari xorijiy navlar uchun ajratildi. Chetdan olib kelingan paxta navlari zamonaviy agrotexnologiyalar asosida avval tajribada sinab ko'rilmagan usulda, ya'ni qo'shqotar qilib ekildi.

Mamlakatda salkam to'rt million tonnalik ulkan xirmon yaratildi. Aksariyat fermerlar shartnoma majburiyatlarini oshirib bajarish bilan birga hozirgi g'animat kunlarda dalalardagi oxirgi paxta hosilini terib olish bilan mashg'ul.

Albatta, bunday misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga o'z-o'zidan erishilgani

Davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlardan yana biri — paxta terish mashinalarining aksariyat qismini fermerlar lizing shartlari asosida xarid qildi. Joriy mavsumda har bir mashina o'rtaacha 800-1000 tonna paxta terdi. Terish traktorlari terim xarajatini 1,5-2 barobargacha kamaytirish bilan birga qisqa muddatlarda hosilni sifatli yig'ishtirib olish imkonini ham berdi.

Mamlakatda salkam to'rt million tonnalik ulkan xirmon yaratildi. Aksariyat fermerlar shartnoma majburiyatlarini oshirib bajarish bilan birga hozirgi g'animat kunlarda dalalardagi oxirgi paxta hosilini ham terib olish bilan mashg'ul.



Aktram HAITOV,
O'zbekiston fermerlari
kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Endi avvalgidек son yoki raqam ortidan quvilmayapti, aksincha, fermerlar yetishtirilgan hosil sifatiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ya'ni asosiy maqsad daromadni ko'paytirish, manfaatdorlikni oshirishdan iborat. Hosildorlik oshyaptimi, demak, o'z-o'zidan fermerning ham daromadi ko'payadi. Bu esa sohadaги eng asosiy manfaatdorlik belgisidir. Kuzatilayotganidek, tarmoqda yangicha munosabatlar shakllanayotgani tufayli paxta maydonlari hajmi qisqarib borayotgan bo'lsa-da, o'rtaacha hosildorlik sezilarli darajada oshyapti, sifat ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda.

Ushbu rivojlanish bosqichida davlatning qishloq xo'jaligiga oid samarali siyosati, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va zamonaviy

BUXORO — XALQARO KASBIY MAHORAT MUSOBAQASI MEZBONI

Bugungi kunda global miqyosda yuz berayotgan o'zgarishlar, ilg'or texnologiyalarning tez sur'atda rivojlanishi va raqobat muhiti keskinlashuvi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jarayonlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, energetika sohasi davlat mustaqilligi, iqtisodiy barqarorligi va mintaqaviy xavfsizlikning asosiy poydevorlaridan biriga aylangan. Bu sohada faoliyat yuritayotgan muhandis va texnik mutaxassislar esa milliy taraqqiyotning tayanchi, ilmiy-texnik salohiyatning ifodasi sifatida tobora yuksak qadrlanmoqda.



Hamkorlik

Neft va gaz sohasi faqat resurslar bilan bog'liq yo'nalish emas, strategik qarorlar, yuqori aniqlikdagi muhandislik yechimlari va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan murakkab tizimdir. Bunday sharoitda yuqori malakali mutaxassislar — texnolog, loyihachi, montajchi, energetik yoki nazorat uskunalar muhandisi kabi kasb egalari iqtisodiy samaradorlik, xalqaro

hamkorlik va resurslardan oqilona foydalanishning asosiy kafolatiga aylanmoqda.

Aynan shu voqe'lik zamirida 2025-yil 29-31-oktabr kunlari Buxoro shahrida Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi (CNPC) tashabbusi bilan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro kasbiy mahorat

musobaqasi bo'lib o'tdi. Bu nufuzli tadbir ilk bor mamlakatimizda tashkil etilgani bilan sohaviy, siyosiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Musobaqa doirasida olti mamlakat — O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Myanma, Niger va Beninning 9 jamoasi



Tadbir 6 ta asosiy texnik yo'nalish bo'yicha tashkil etildi: yuk ko'tarish ishlari, elektrotexnika, quvur montaji, payvandlash, avtomatlashtirish va asbob-uskunalar bo'yicha ishlar, shuningdek, katod himoyasi sohasida mutaxassislar mahorati baholanadi. Bular ishlab chiqarish jarayonlari markazida turgan, yuqori darajadagi diqqat, javobgarlik va aniqlik talab qiluvchi kasblardir.

tarkibida 86 mutaxassis qatnashdi. Ular o'z sohalarida eng yuqori ko'nikma va mahoratga ega bo'lgan professionallar bo'lib, bu kabi xalqaro miqyosdagi sinovlarda ishtirok etish orqali nafaqat o'z malakasini namoyon etadi, balki tajriba almashuvga, yangi texnologiyalar bilan tanishishga ham xizmat qildi.

Musobaqa "Asia Trans Gas" qo'shma korxonasi mezbonligida o'tkazildi. U Turkmaniston — O'zbekiston — Qozog'iston — Xitoy magistral gaz quvurini O'zbekiston hududida ekspluatatsiya qilish bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Musobaqa tashkilotchisi sifatida CNPC kompaniyasi,

"O'zbekneftgaz" AJ esa strategik hamkor sifatida qatnashdi.

Tadbir 6 ta asosiy texnik yo'nalish bo'yicha tashkil etildi: yuk ko'tarish ishlari, elektrotexnika, quvur montaji, payvandlash, avtomatlashtirish va asbob-uskunalar bo'yicha ishlar, shuningdek, katod himoyasi sohasida mutaxassislar mahorati baholanadi. Bular ishlab chiqarish jarayonlari markazida turgan, yuqori darajadagi diqqat, javobgarlik va aniqlik talab qiluvchi kasblardir.

29-oktabrda musobaqa tantanali ochilish marosimi, jamoalar taqdimoti hamda texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalalar bilan boshlandi. Ikkinchi kun ishtirokchilar haqiqiy

ularning moddiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning "Agar fermer va dehqonni iqtisodiy manfaatdor qilsak, ular davlat mablag'isiz ham ishlay oladigan vaqlar keladi", degan so'zlari bugun hayotda o'z tasdiq'ini topmoqda. Bu yil ikki yarim mingdan ziyod fermer yoki ushbu qatlarning o'n foizga yaqini paxtani o'z mablag'i hisobiga yetishtirib, iqtisodiy mustaqillik yo'lida dastlabki qadamini qo'ydi. Zero, o'z mablag'i yoki tijorat krediti hisobiga paxta yetishtirib, xomashyoni birjada sotgan fermer xo'jaliklariga o'rtaacha xarid narxining o'n foizi miqdorida mablag' qoplab berilishi ham katta rag'bat, aslida.

Paxtachilikda hosildorlikni oshirish va tanarxni kamaytirishning muhim omili suv tejovchi texnologiyalarning jadal joriy etilishi ekanini ko'pchilik fermerlar endi anglab yetmoqda. Bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, yaxshigina imtiyozlar ham berilgan. Masalan, joriy yilda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalari hisobidagi 20 ming kilometrga yaqin ichki sug'orish tarmog'i betonlashtirildi. Tejamkor sug'orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlar mamlakat bo'yicha 700 ming gektardan oshdi.

Yana bir muhim jihat, xomashyo yetishtiruvchi fermerlar va paxta to'qimachilik klasterlari o'rtasida munosabatlarning yangicha tashkil etilganidir. Muhimi, bu borada erkinlik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Yurtimizning deyarli barcha hududlarida mahsulot yetishtirishdan tortib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq zanjimni qamrab oluvchi klasterlar faoliyati rivojlanib borayotgani, ularning ham davlat tomonidan to'la qo'llab-quvvatlanishi soha rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Agrar sohada raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish borasida yaratilayotgan imkoniyatlar ham fermerlar xarajatini kamaytirish va natijadorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakat miqyosida tajribali va ilg'or fermerlar soni yildan yilga oshib boryapti. Ular har tomonlama ulkan muvaffaqiyatlarga erishayotgani umumdavlat manfaatlariga xizmat qilishi tabiiy jarayon. Lafzi halol, fidoyi, mehnatsevar fermerlar soni yil sayin ko'payib borayotgani qishloq xo'jaligi sohasi jozibadorligini ortayotganini anglatadi. Bu esa yurtimiz taraqqiyotiga, oziq-ovqat xavfsizligiga, pirovardida xalqimiz farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

ish sharoitida o'z bilim va mahoratlarini sinovdan o'tkazdi.

Ushbu tadbirda yaxshi taassurot qoldirishga harakat qildik. Zero, bu biz va jamoamiz, qolaversa, boshqa ishtirokchilar uchun ham birday muhim edi, — deydi Myanma vakili Aung Kyav Moye. — Umid qilamanki, ishtirokchilar tanlovda yaxshi qatnashdi, shu jumladan, bizning jamoa ham. Shu kabi musobaqa va tanlovda bundan keyin ham ishtirok etishda davom etamiz.

Bellashuv davomida ishtirokchilar ish sharoitida murakkab texnik vazifalarni yechishi, xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilib, tez va aniq ishlash qobiliyatini namoyon etishi zarur edi. Musobaqa yakunida jami 36 ta — 8 ta oltin, 12 ta kumush va 16 ta bronza medal, shuningdek, "Eng yaxshi tashkilotchi bo'linma" va "Ilg'or mehnat" nominatsiyalari bo'yicha ham maxsus mukofotlar g'oliblarga topshirildi.

Musobaqada kimdir mahoratini ko'rsatib, munosib o'rin egalladi, yana kimdir malakasini oshirib oldi. Umuman olganda, barcha ishtirokchilarda yuqori kayfiyat bo'ldi, — deydi "Asia Trans Gas" qo'shma korxonasi Buxoro magistral gaz quvurlarini boshqarish bo'limi boshlig'i o'rinbosari Otabek Komilov. — Biz musobaqada munosib ishtirok etib, 4 ta birinchi, 4 ta ikkinchi, 4 ta uchinchi o'rinni egallab, umumjamoa hisobida eng yaxshi natijani qo'lga kiritdik.

Mazkur musobaqaning ahamiyati faqat kasbiy bellashuv bilan cheklanib qolmaydi. U xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, transmilliy loyihalarda ishtirok etayotgan kompaniyalar o'rtasida tajriba almashuvini kuchaytirish, sohaviy standartlarni yaqinlashtirish va eng muhimi, yoshlar orasida muhandislik kasblariga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

**Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

Yurtimizda global tarmoqlardan foydalanish sur’ati yil sayin oshib bormoqda. Fuqarolar o’ziga tegishli bo’lgan fuqarolik huquqlarini, jumladan, ularni himoya qilish huquqini ham o’z xohishiga ko’ra tasarruf etadi. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslar huquqlari hamda qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Fuqaro o’z huquqlarini amalga oshirishda ma’naviy tamoyilni va axloqiy normalarni hurmat qilishi kerak. Boshqa shaxsa zarar yetkazishga, ya’ni huquqini buzishga hech kimning haqqi yo’q. Lekin bugun internet imkoniyatidan noto’g’ri foydalanayotganlar ham kam emas.



Shuhrat RO‘ZINAZAROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik
fanlar doktori

Bu haqda kecha Prezidentimizning millat genofondini giyohvandlikdan himoya qilish, kiberjinoatlarga qarshi samarali kurashish hamda prokuror nazoratini raqamlashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishish chog’ida ham alohida so’z yuritildi.

Qayd etildiki, yurtimizda joriy yilning o’zida 46 mingdan ortiq kiberjinoat aniqlangan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 1,2 trillion so’mdan oshgan.

Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari, bank kartalari va elektron imzolari bo’yicha amalga oshirilayotgan fribargarliklar soni keskin ortib bormoqda. Jinoatlarning katta qismi internet orqali amalga oshirilib, eng ko’p tarqalgan usullardan biri bank kartalari orqali sodir etilayotgan kiberfribargarlik hisoblanadi.

Numbeo saytida e’lon qilingan 2025-yil yarim yilligi bo’yicha xalqaro jinoyatchilik darajasi indeksida O’zbekiston xavfsizlik bo’yicha 25-o’rinni egalladi. Reyting Crime

Bir manzil

Bundan uch yil oldin davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangi Ko’kdala tumani tashkil etildi. O’shanda ko’pchilik, hatto tuman aholisi ham qisqa muddatda hududda katta o’zgarishlar bo’lishini xayoliga keltirmagan. Bugun ushbu manzilda bo’lgan kishining ko’zi bunyodkorlik ishlaridan quvnaydi, yangi qiyofaga kirib borayotgan tuman markaziga boqib hayratlanadi. Muhimi, barcha sohada keng islohotlar amalga oshirilib, o’zgarishlarga yuz tutmoqda. Buni har bir yo’nalishda kuzatish mumkin.

Ellik yillik orzu ushaldi

Eski Anhor mahallasi Ko’kdala tumanining olis manzillaridan. Hudud oqsoqollarining aytishicha, bu yerda taxminan ellik yil oldin bog’cha bo’lgan. Paxsadan qilingan, ikki-uch xonadan iborat inshootning sharoiti ham o’ziga yarasha edi. Keyinchalik bino dala shiyponiga aylantirilgan. Oradan shuncha yil o’tsa-da, birorta maktabgacha ta’lim tashkiloti ochilmagan. Aholi bu borada ko’p bor murojaat qilib, bormagan joyi, kirmagan idorasi qolmagan. O’sha paytlari hudud Chiroqchi tumaniga qarashli bo’lgani bois, mas’ullar ham “erta-indin” degan javobdan nariga o’tmagan.

Ko’kdala tumani tashkil etilgach, mahallaning yarim asrlik orzusi ushaldi. O’sha yilning o’zida 6 milliard so’mdan ortiq mablag’ evaziga qishloq o’rtasida davlatga tegishli zamonaviy 18-maktabgacha ta’lim tashkiloti qad rostladi. 120 o’ringa mo’ljallangan bog’cha bugun qishloq bolalari bilan gavjum.

— Yaqin orada qishlog’imizda bunday chiroyli bog’cha barpo etiladi deb o’ylamagandik, — deydi maktabgacha ta’lim tashkiloti mudirasi Dilbar Ochilova. — Bu barchamiz uchun quvonchli ish bo’ldi. Bugun qishloq bolalari ham zamonaviy maskanda

AXBOROT TEKNOLOGIYALARI

to’g’ri ishlatilsa – imkoniyat, noto’g’ri foydalanilsa...

Index — jinoyatlar indeksi va Safety Index — xavfsizlik indeksleri asosida tuziladi. 2025-yil birinchi yarim yilligida O’zbekiston ushbu indeks bo’yicha Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng xavfsiz mamlakat bo’ldi.

So’nggi besh yilda yurtimizda kiberjinoatlar soni 2023-yildagiga nisbatan 68 barobar, birgina o’tgan yilning o’zida 9,1 barobar ko’paydi. Shu davrda jismoniy va yuridik shaxslardan kiberhuquqbuzarliklar yuzasidan kelib tushgan murojaatlar soni 34 barobar oshdi. Mazkur jinoatlar tufayli fuqarolardan 1 trillion 909 milliard so’mdan ortiq mablag’ o’g’irlangan. 2019-yilda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda 18 turdagi 863 ta jinoat sodir etilgan bo’lsa, 2024-yilda 62 turdagi 58,8 ming jinoat qayd etilgan. Umumiy jinoatlar tarkibida kiberjinoatlar salmog’i sezilarli darajada oshgani ularning oldini olish zarurligini yanada dolzarb qilib qo’yarmoqda. 2023-yilda umumiy jinoatlar tarkibida kiberjinoatlar ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo’lsa, o’tgan yili 44,4 foizga yetdi. Deyarli har ikkinchi jinoat axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan.

Raqamli texnologiyalardan nafaqat insoniyat manfaati uchun, balki huquqbuzarlik va korrupsiya maqsadlarida ham foydalanish mumkin. Axborot texnologiyalari kengayirishi undan noqonuniy va g’arazli maqsadlarda foydalanish xavfini oshiradi. Raqamli makonda korrupsiyaning yangi shakllari vujudga keladi. Milliy qonunchiligimizda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini nazarda tutilgan. Ammo uning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralarini tizimli ko’rib borish ustuvor vazifalardan bo’lib qolmoqda. Bu borada fuqarolarning kibermadaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, dolzarb.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi 3-qismi “g” bandida jinoat axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo’lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravarini to’rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha xilof tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi keltirilgan. Shuningdek, o’g’rilik, ya’ni o’zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qismi “b” bandi bilan javobgarlikka tortishga asos bo’ladi. Bundan tashqari, kodeksda internet bilan bog’liq jinoatlar uchun javobgarlik belgilangan. Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksda ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog’liq huquqbuzarlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. 2022-yil 15-apreldagi “Kiberxavfsizlik to’g’risida”gi qonunda kibermakonda shaxs, jamiyat

va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati keltiriladi. Kiberhimoya kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ularidan himoya qilishga, oqibatlarini bartaraf etishga, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborot tizimlari hamda resurslari barqarorligi, ishonchilligini tiklashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy, muhandislik-texnik chora-tadbirlar, ma’lumotlarni kriptografik va texnik jihatdan himoya qilish chora-tadbirlari majmuidir.

Qonunning 16-moddasida kiberxavfsizlik subyektlarining huquq va majburiyatlari o’z ifodasini topgan. Ya’ni ular o’z kiberxavfsizligini ta’minlash maqsadida vakolatli davlat organidan kibertahdidlar, dasturiy ta’minotdagi, uskunalar va texnologiyalardagi zaifliklar to’g’risidagi ma’lumotlarni olishga haqli.



Bundan tashqari, kiberxavfsizlik subyektlari axborot tizimlari va resurslaridagi ma’lumotlarning qonunga xilof ravishda tarqatilishi, o’g’irlanishi, yo’qolishi, yaxlitligi buzilishi, bloklanishi va qalbakilashtirilishi, axborot tizimlari hamda resurslariga ruxsatsiz kirishning boshqa ko’rinishlarining oldini olishi, bunday hollar aniqlanganda esa o’z vaqtida tegishli choralar ko’rishi zarur. Axborot tizimlari va resurslariga kirish tartibi buzilganda, ularga ruxsatsiz kirish natijasida ushbu tizimlar hamda resurslar o’zgartirilgan yoki yo’q qilingan taqdirda salbiy oqibatlarni kamaytirish maqsadida tekzorlik bilan tiklash choralarini ko’rishi talab etiladi. Qolaversa, sodir bo’lgan kiberxavfsizlik hodisalari va kiberjinoatlar to’g’risida vakolatli davlat organini xabardor qilishi, ushbu hodisalarni to’liq fosh etish uchun

tegishli raqamli izlarning yo’qolishiga yo’l qo’ymaslik choralarini ko’rishi, shuningdek, kiberxavfsizlik hodisalarini tahlil qilish va kiberjinoatlarini tekshirish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar doimiy saqlanishini ta’minlashi zarur. Kiberxavfsizlik obyektlarini muhofaza qilish va xavfsiz ishlashi monitoringini o’tkazish sohasidagi ma’lumotlarni vakolatli davlat organi bilan o’zaro almashishni amalga oshirishi lozim. Axborot tizimlari va resurslari kiberhimoyasini ta’minlashda vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilishi lozim.

Prezidentimizning 2025-yil 30-apreldagi “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorida joriy yil

javobgarlikni belgilovchi amaldagi normalarni oqibat mavjud bo’lmasa-da, javobgarlik yuzaga kelishi nuqtayi nazaridan takomillashtirish belgilangan. Banklar, to’lov tizimi operatorlari hamda to’lov tashkilotlari, shuningdek, boshqa tashkilotlar axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmagan natijasida sodir etilgan kiberjinoat oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibini joriy qilish ko’zda tutilgan.

Jinoyat qonunchiligi bilan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoatlar hamda pul mablag’lari va boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat uchun belgilangan jazo choralarini kuchaytirish, jinoat sodir etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish javobgarlikni hamda jazoni og’irlashtiruvchi holat sifatida belgilanadi. Qolaversa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bank siriga oid so’rov va qarorlari ijrosini ta’minlashning aniq muddatlarini belgilash hamda ularni bajarishni nazarda tutuvchi tartibni joriy etish ko’zda tutilgan.

Kiberjinoatlarning oldini olish yo’nalishidagi targ’ibot-tashviqot tadbirlari samaradorligiga erishish maqsadida respublika miyosida har yilning noyabr oyini “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” deb e’lon qilish belgilab qo’yilgan. Eng muhimi, kiberjinoatlarning yangi shakllari va ularni sodir etish usullarini inobatga olish, shakllari, sodir etish usullari to’g’risida ogohlantirish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlardagi maqsadli (target) reklama xizmatidan bepul foydalanish ijobiy natija beradi. Kiberxavfsizlikni ta’minlash va huquqbuzarlikning oldini olishda fuqarolarning huquqiy axborotlardan xabardorligi g’oyat muhim ahamiyatga ega. Huquqiy targ’ibotning qator usullaridan foydalanish mumkin. Bular sirasiga konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va muloqotlar o’tkazish, ommaviy axborot vositalari orqali, jumladan, teleko’rsatuvlar va radioeshittirishlar tashkil etish, bosma va elektron ommaviy axborot vositalariga maqolalar, huquqiy-axborot materiallarini joylashtirish kiradi. Shuningdek, sharhlar, risolalar, plakatlar, bukletlar va flyerlar tarqatish, ijtimoiy reklamalar (videolavhalar, infografikalar va boshqalar) hamda targ’ibotning qonunchilik bilan taqibqalnmagan boshqa turlari orqali amalga oshirishga yo’l qo’yiladi.

Tizimli va amaliy tahlil natijalari dalolat berishicha, raqamli transformatsiyalashuv

sharoitida huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog’liq qator muammolarni hal qilish zarur. Jumladan, raqamli huquqbuzarliklar profilaktikasi bo’yicha tadbirlarni muntazam monitoring qilish va baholashning sifat ko’rsatkichlarini ishlab chiqish kerak. Aholining huquqiy savodxonligini oshirib borishning aniq profilaktik, statistik, ijtimoiy, psixologik va mintaga hamda hududlar kesimidagi ko’rsatkichlari asosida tadqiqotlar o’tkazish zarurati mavjud. Ayniqsa, axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ilmiy-amaliy asoslangan tadqiqotlar rejalari ishlab chiqish va uning ustuvor yo’nalishlarini aniqlash istiqbollidir.

Raqamli transformatsiya jadal rivojlanishini inobatga olib huquqbuzarliklar xarakteri va turlarini tasniflash, bu borada aholi, ayniqsa, yoshlarning bilim hamda ko’nikmalarini shakllantirishda internet orqali sodir etilayotgan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish bo’yicha targ’ibot materiallarini yaratish lozim. Shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan bog’liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni tizimlashtirish va unifikatsiyalashgan mazmunda ishlab chiqishda shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatini inobatga olish dardor.

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish bo’yicha nafaqat huquqiy, balki raqamli texnologiya sohasi bo’yicha mukammal bilimli huquqshunos mutaxassislar korpusini tayyorlash tizimini yo’lga qo’yish zarurati vujudga kelmoqda. Yuridik ta’lim muassasalarida raqamli huquq, sun’iy intellektning huquqiy asoslari, axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid maxsus va sohaviy fanlarni o’qitishni joriy etish davr talabiga aylanmoqda. Bu bo’yicha o’quv adabiyotlari, maxsus raqamli elektron dasturlashtirilgan ta’minotlar ishlab chiqish, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa sohalarda mutaxassislari ishtirokida muntazam rejali targ’ibot ishlari ta’sirchanligini oshirish lozim. Shu kabi choralar raqamli transformatsiyalashuv sharoitida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirib, axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi. Bu ijtimoiy davlat va jamiyat barpo etishning g’oyat muhim shartidir.



KO’KDALADA UCH YILDA IKKI MINGDAN KO’P BOG’CHA OCHILDI



tarbiyalanmoqda. Bog’chamizda bolalar qiziqarli mashg’ulotlarga jalb etilib, bilim olishga ishtiyiqi oshirilmoqda. Ota-onalar hamkorligi keng yo’lga qo’yilgan. Muhimi, har bir bolaning vaqti mazmunli o’tmoqda.

Bu yerda 120 o’g’il-qiz tarbiyalanmoqda, 20 ga yaqin ish o’rni ochilgan. Barcha zarur jihozlar zamon talabiga moslab o’rnatilgan.

— To’ng’ich farzandimiz uch yoshga qadar qadam tashlashda bir oz qiynaldi, — deydi Roziya Amirova. — Faqat emaklab yurardi. Ba’zi muolajalar ham foyda bermadi. Bu yil qishlog’imizda bog’cha ochildi. O’g’limni shu yerga olib keldim. Tarbiyachilar ikkilandi. Shunday bo’lsa-da, ulardan farzandim tengdoshlari orasida bo’lishini iltimos qildim. Yo’q, deyshimadi. Oradan uch oy vaqt o’tmay, farzandim qadam tashlashni o’rgandi. Ko’pchilik orasida bo’lgani unga katta foyda berdi.

“Endi xavotirsiz ishga boraman”

Sunbula Normamatova qishloqdagi maktabda o’qituvchi. Shu paytgacha yosh farzandi borligi bois, xotirjam ishga borolmasdi. Har kuni bolasiga qarab turishni kimgandir

iltimos qilardi. Ba’zida bunga yechim topolmay, ishdan qolardi. O’sha yili aynan Paxtalisoq mahallasida ham maktabgacha ta’lim tashkiloti ochilishini eshitib, unchalik ishonqirimagandi. Bog’chaga yer ajratilib, qurilish ishlari boshlangach, ishonch hosil qildi. Sababi avvallari ham to’rt-besh marta qurilish haqida gap-so’z bo’lgan, ammo biror amaliy ish qilinmagan.

— Qishlog’imiz ayollari ancha yildan buyon yosh bolasini uyda yolg’iz qoldirmaslik uchun ishga chiqolmay yurardi, — deydi muallima. — Bu bog’cha bir umrlik orzumiz ro’yobi. Mana uch yildirki maktabda xotirjam dars o’tib kelaman. Farzandim ishonchli qo’l'larda. Barcha sharoit bor. Yotoqxonalari shinam. Sifatli va mazali taomlar pishirib berilmoqda. Bundan tashqari, o’g’lim har kuni she’r yodlab keladi. O’qish va yozishni o’rganyapti. O’zini tutishi, odob-axloqi joyida. Bunda tarbiyachilarning mehnati katta. Bog’cha tufayli men kabi xotin-qizlar turli joylarda mehnat qilmoqda. Daromad topib, turmush tarzini yaxshilashga hissa qo’shmoqda. Qishlog’imizda bolalar bog’chasi qad rostlagani bizga ana shunday quvonchli yangiliklar olib keldi.

Ayni paytda 17-maktabgacha ta’lim tashkilotida Yulduz Safarova rahbarlik qilmoqda. Aytishicha, bog’chani bunyod etishga 6 milliard so’mdan ortiq mablag’ sarflangan. Ayni paytda 120 nafar bola qamrab olingan.

Tumandagi Torjilg’a aqshlog’ida ham yangi bog’cha qurilmoqda. Ayni paytda tashqi pardozlash ishlari bajarilayotgan mazkur inshoot qisqa muddatda bolajonlar ixtiyoriga topshiriladi.

— Bunday ko’rkam bolalar bog’chasi qurilishi oldin tushimizga ham kirmagan. Har kuni borib, qurilishni ko’zdan kechirib kelaman. Baraka topishsin, sifatli ish bo’lmoqda. Bolaligimizda bunday maskanlar haqida tasavvurga ham ega emasdik. Mana, bugunning baxtiyor bolalari uchun yurtimizda qanday ishlar qilinmoqda. Kelajakka sarflangan sarmoya natija beradi, albatta, — deydi qishloq noroniylaridan biri Sheruq ota Sharipov. — Bir paytdi maktabga borish uchun kamida o’n kilometr masofani ot-eshakda bosib o’tardik. Qish kunlari uyga qaytganimizcha qorong’i tushib qolardi. Qo’limiz muzlab ketardi. Ayniqsa, yog’ingarchilik payti bir kun darsda borsak, to’rt kun kasal bo’lib yotardik. Hozir shunday ostona hatlab o’tsangiz, maktabga borasiz. Endi bog’cha ham qurilmoqda. Bundan

ortiq yana qanday imkoniyat bo’lsin. Bolalar faqat ilm olishi kerak.

“Qamrov 44,5 foizdan oshdi”

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, Ko’kdala tumani tashkil etilgan dastlabki yilda hududda 3-7 yoshli bolalar soni 19 ming 951 nafar bo’lgan. Shundan bor-yo’g’i 3482 nafari bog’chaga borgan. Sababi o’sha paytda tuman bo’yicha 4 ta bog’cha bo’lgan. Ularning ham aksariyati ta’mirga muhtoj binolarda joylashgan edi.

— 2022-yil avvalida hududimiz 3-7 yoshli bolalarning bog’chaga qamrovi bo’yicha anchagina ortda edi, — deydi Ko’kdala tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi bosh mutaxassisi Shohsanam Qo’chqorova. — Tuman tashkil etilganidan keyin bog’chaga qurilishiga katta e’tibor qaratildi. Jumladan, 2023-yilda davlatga tegishli 15 ta, davlat-suxusiy sheriklik asosida 4 ta yangi MTT ochildi. Oilaviy bog’chalar soni 56 taga yetkazildi. Natijada 6500 dan ortiq bola qamrab olinib, ko’rsatkich bir yilning ichida 17,45

foizdan 31,94 foizga ko’tarildi. 2024-yilda qo’shimcha 3 ta yangi bog’cha qurildi. Oilaviy bog’chalar soni 2187 taga yetdi. Jami qamrov 44,5 foizdan oshdi. Bugun esa davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari 23 ta bo’ldi. Yana 2 ta yangi bog’cha qurilmoqda. Yil yakuniga qadar qamrovi 53 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Sohada bajarilgan ishlarni tahlil qilsak, o’tgan uch yilda katta natijaga erishilganini ta’kidlash joiz. Shuningdek, tuman yangicha qiyofaga kirib bormoqda. Xususan, o’tgan uch yilda 120 kilometrga suv, 210 kilometrga elektr tarmog’i tortildi. Yo’llar kengaytirilib, ta’mirlandi. Ma’muriy binolar, ko’p tarmoqli shifoxona va oilaviy poliklinika barpo etildi.

Tuman hokimligi uchun qurilgan bino mamlakatimizda yangi tajribaning boshlanishi bo’ldi. U 38 ta davlat idorasini bir joyda jamlagan. Bu, avvalo, aholi uchun katta qulaylik yaratmoqda. Ilgari biror yumush uchun olis masofani bosib, mablag’ sarflab, vaqt yo’qotib, Chiroqchi tumani idoralariga qatnagan fuqarolar endi barcha xizmatni o’ziga yaqin joyda olyapti. Bu ham vaqtni, ham mablag’ ni tejamoqda.

Misol uchun, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi ham hokimlik binosida joylashgan. U yerda aholi uchun ijtimoiy xizmatlar va yordamlar bir nuqtada kompleks shaklda taqdim etiladi. Uning dasturiy tizimi 55 ta daxldor tashkilotning ma’lumotlari bilan integratsiya qilingan.

Tuman markazidagi Yettitom kichik sanoat zonasidagi to’rt gektar maydonda to’qimachilik, oziq-ovqat, qurilish va xo’jalik mollari kabi yo’nalishlarda qiymati 10 million dollarkit to’qizta kichik loyiha joylashtirilgan. Masalan, “Komfort Star New” korxonasida isitish qozonlari va boshqa temir mahsulotlar, “Komfort Industrial Aria”da esa chinni buyumlar ishlab chiqarilaypti. Umuman, sanoat zonasida 600 dan ortiq doimiy ish o’rni ochilishi maqsad qilingan.

Manzilda ijtimoiy soha obyektlari, kutubxona, sport maydonlari, madaniyat markazlari qurilishi davom etmoqda. Qisqasi, yangi tuman tashkil etilishi aholini turmush tarzini yaxshilash, farovon hayot kechirishiga xizmat qilmoqda. Asosiysi, odamlar qalbidra roziulik, ertangi kunga ishonch ortmoqda. Hududdagi obodlik qalblarni quvonchga to’ldirmoqda.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

Mamlakatimizda musiqa terapiyasi yo‘nalishini tizimli rivojlantirish, mutaxassislarni birlashtirish hamda faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida soha fidoyilari tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbus balki kimlargadir erish tuyular. Biroq Ibn Sinoning ilg‘or g‘oyalari, ayniqsa, uning “Kitob ash-shifo” asariga e’tibor qaratsak, alloma musiqani tibbiyotning bir turi sifatida qabul qilganini ko‘rishimiz mumkin. U musiqa kasalliklarning ham jismoniy, ham ruhiy jihatlarini, xususan, hissiy va ruhiy kasalliklarni davolash vositasi sifatida qaragan.

Shu ma’noda, tashkil etilajak O‘zbekiston musiqa terapiyasi assotsiatsiyasi musiqa va tibbiyot sohalari integratsiyasini rivojlantirish, xalqaro tajribani o‘rganish hamda ilmiy tadqiqot faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi, desak xato bo‘lmaydi. Bu xususdagi fikrlarimizni **Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti rektori v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor Eldor SHERMANOV** bilan davom ettirdik.

— Yer yuzining turli o‘lkalaridan turli davrlarda ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular tomonidan o‘z zamonida turfa ixtirolar va ishlar amalga oshirilgan. Xususan, bir-biriga yaqin davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino ko‘plab sohalarga tamal toshi qo‘ygan. Ular qoldirgan merosda musiqiy risolalar ham ta’algina. O‘zbek musiqasi tarixida Forobiy va Ibn Sino nazariyasi hamda qarashlari keyingi davrlar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, Ibn Sino musiqani ruh ozuqasi sifatida e’tirof etgan. Uning falsafiy va tibbiy nazariyalari inson ruhi va jismoniy farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun asos yaratdi. Bu esa, o‘z navbatida, musiqaning asab tizimi bilan o‘zaro ta’siri, miya to‘liqlarining naqshlarini va yurak urish tezligining o‘zgaruvchanligini o‘zgartirishi haqidagi zamonaviy kashfiyotlarni oldindan belgilab berdi. Buyuk tib olimi davolashning eng samarali usullaridan biri musiqa tinglash ekanini ta’kidlaydi. Bu musiqa terapiyasining tibbiy davolanishdagi o‘rnini aniq ko‘rsatadi.

— Shunday bo‘lsa-da, afsuski, so‘nggi yillarda mintaqamizda musiqiy tafakkur va qarashlar ancha o‘zgarib, tibbiyot va musiqa butunlay ayro holda rivojlandi. Asli bir maqsad, ya’ni inson ruhiyati va tanasini sog‘lomlashtirish ko‘zlangan bu sohalarning aloqasi to‘liq uzildi. Lekin jahon tajribasiga nazar solsak, dunyo miqyosida



taqdim etildi. Taqdimotda o‘zbek milliy maqomlaridan 22 ta eng sarasi tanlab olinib, ularning har biriga ilmiy asosda sharh berilgan. Ya’ni qaysi maqomni qanday vaqtda eshitish tavsiya etiladi va qaysi bir musiqa inson ruhiyatiga, qon aylanish tizimiga, xotirjamlikka hamda baxt garmoni ishlab chiqilishiga ta’sir etish omillari batafsil tushuntirib berildi. Shundan so‘ng konferensiya ishtirokchilari bir ovozdan ushbu kapsulani amaliyotga joriy etish bo‘yicha qaror qabul qildi. Shuningdek, maqom kapsulasi yo‘riqnomasi va ashulalariga dunyoning yetakchi olimlari tomonidan ekspertlik xulosalari berildi. Xulosalar ko‘rsatadiki, ohanglar va musiqiy usullar miyaning limbik tizimini faollashtiradi, stress gormonlarini kamaytiradi va serotonin gormoni ishlab chiqilishini oshiradi.

Bu milliy musiqamizning durdona asarlari bo‘lgan maqomlarning inson ruhiyatiga ta’sirini o‘rganishdagi qadamlar edi.

— Demak, birinchi odimlardan oq muvaffaqiyatga erishgan yangi yo‘nalish qisqa vaqtda birlashma tuzishga asos



musiqa terapiyasi shiddat bilan rivojlan-yapti. O‘zbekistonda ham bu borada ishlar boshlanganmi?

— Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur soha 104-yillardan shakllana boshlagan. Hozirgi kunda 26 mingdan ortiq musiqa terapevti faoliyat yuritib, yiliga 1,6 milliondan ortiq inson bilan ishlamoqda. Bu esa sohaga talab ortib borayotganidan dalolat beradi. Dunyo miqyosida musiqa terapiyasi markazlari faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimizda mazkur sohani jonlantirishga ilk qadamlar 2024-yildan boshlandi. Xususan, o‘tgan yilning avgust oyida Samarqand shahrida o‘tgan “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali doirasida “Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg‘unlashuv tamoyillari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Unda Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professor-o‘qituvchilari tomonidan amaliyotga joriy etilgan “maqom kapsulasi” xalqaro ekspertlarga

bo‘layotgani quvonarli. O‘zbekiston musiqa terapiyasi assotsiatsiyasi yurtimizda musiqiy terapiya sohasini yangi bosqichga olib chiqishi kutilyapti, to‘g‘rimi? Soha vakili sifatida uning istiqboli haqida qanday fikrdsasiz?

— Ha, bu O‘zbekistonda ham musiqa terapiyasi tatbiq etilishiga xayrixohlikdan dalolat. Mazkur assotsiatsiyani tashkil etish bo‘yicha el ardog‘idagi san’atkorlar, psixologlardan neyrofiziolog, pediatr, terapevt, psixologlardan tarkib topgan ta’sisчилarning umumiy uchrashuvi o‘tkazildi. Uchrashuv davomida tashkilot ustavi tasdiqlanib, rahbar organlari — boshqaruv, markaz raisi hamda nazorat-tafish komissiyasi saylandi. Shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Braziliya kabi rivojlangan mamlakatlarda musiqa terapiyasi sog‘liqni saqlash tizimining bir qismi sifatida keng foydalanib kelinayotgani to‘g‘risida ma’lumot berildi.

O‘zbekiston musiqa terapiyasi assotsiatsiya-sini tashkil etish qatnashchilar tomonidan

ma’qullandi. Bu, albatta, kelgusida qilinajak ishlarning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi. Assotsiatsiya musiqiy terapiyaning jahon tajribasini chuqur tahlil etib, milliy musiqa orqali musiqiy terapiyani xalq orasida tatbiq etishga xizmat qilishiga ishonamiz.

— Keling, subhatimizni yana musiqaning inson salomatligiga ta’siri bilan xulosalasak. Chunonchi, o‘tkazilgan tahlillar musiqa terapiyasi surunkali og‘riqdan aziyat chekayotgan bemorlarda hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatdi. Yuqoridagi fikrlarning mantiqiy davomi o‘laroq bunga ham munosabat bildirsangiz.

— Bugungi kunda musiqa terapiyasi fani dunyo bo‘ylab yangi bosqichga ko‘tarildi. Endi u shunchaki “musiqa tinglab tinchlanish” emas, balki ilmiy asoslangan tibbiy-psixologik yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. 2024-2025-yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar musiqaning miya faoliyati, hissiy holat va og‘riqni sezish jarayonlariga chuqur ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan isbotladi. Bu natijalar, tabiiyki, O‘zbekistonda ham musiqa terapiyasini tizimli ravishda rivojlantirish va uning ilmiy-amaliy infratuzilmasini yaratish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda insult, depressiya, stress va turli nevrologik kasalliklar ortib borayotgani sog‘liqni saqlash tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Respublika bo‘ylab har yili minglab bemorlar insultdan keyingi reabilitatsiya yoki asab tizimi faoliyatini tiklash jarayonida bo‘lib, ularning katta qismida nafaqat jismoniy, balki emosional va kognitiv tiklanish ham asosiy muammoga aylanmoqda. An’anaviy dorivor terapiya ko‘p hollarda faqat fiziologik simptomlarni yengillashtirish bilan cheklanadi. Ammo inson sog‘ayish jarayonining asosiy qismi miyadagi neyron aloqalarning qayta faollashuviga, hissiy barqarorlik tiklanishiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, musiqa terapiyasi zamonaviy nevrologiya va psixoterapiyaning muhim bo‘g‘ini sifatida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, musiqa inson miyasida dopamin, serotonin va oksitotsin moddalarini ajralib chiqishini rag‘batlantiradi, bu esa kayfiyatni ko‘tarish, og‘riq sezishni kamaytirish va stress gormonlarini pasaytirishga olib keladi. Shuningdek, “Frontiers in Human Neurosciencye” jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalari ham musiqani og‘li ravishda tinglash yoki ijro etish miyaning prefrontal qobig‘i, gippokamp va amigdala sohalaridagi faoliyatni oshirishi, bu xotira, diqqat va hissiy boshqaruv bilan bog‘liq jarayonlarni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Musiqa, shuningdek, neyroplastiklik, ya’ni miyaning yangi neyron aloqalar yaratish xususiyatini rag‘batlantiradi. 2025-yilda Germaniyadagi Maks Plank instituti tadqiqotida insultdan keyingi bemorlarda 6 haftalik musiqa terapiyasi kursidan so‘ng nutq va harakat faoliyati 35 foizgacha yaxshilanishi qayd etilgan. MRT natijalarida miya po’stlog‘ining nutq va harakat markazlarida yangi neyron bog‘lanishlar paydo bo‘lgani aniqlangan. Bunday natijalar musiqani faqat estetik yoki ruhiy ozuqa sifatida emas, balki biopsixologik shifo manbai sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, musiqa terapiyasi miya faoliyatini qayta uyg‘otuvchi, asab tizimini barqarorlashtiruvchi va ruhiy muvozanatni tiklovchi, ilmiy jihatdan isbotlangan tabiiy rag‘bat hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida bu yo‘nalish, ayniqsa, muhim. Mamlakatda stress, charchoq, ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liq holatlar ko‘pincha yetarlicha psixoterapevtik yordamiz qolmoqda. Shu sababli sog‘liqni saqlash tizimida musiqa terapiyasini tizimli ravishda integratsiya qilish zamonaviy tibbiyotning biopsixosotsial modeliga mos keladigan, insonni jismonan va ruhan davolovchi kompleks yondashuv hisoblanadi. Ayniqsa, ko‘plab odamlarimiz dori-darmonga nuju ko‘ygan bugungi kunda bu turdagi “ishqiboqlik”ni kamaytirishda musiqa terapiyasi yordamga keladi. Ya’ni jismoniy yetkilikka dorilar bilan emas, ohanglar, ashulalardagi so‘zlar ta’siri bilan erishiladi. Milliy musiqalarimiz, maqomlarimizning qalblarga shifo ulashish, dilni yayratish xususiyati yoshlar o‘rtasida ham kengroq namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, musiqa terapiyasi sog‘lom ruhli, ham ma’nan, ham jismonan tekik avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Munojat MO‘MINOVA suhbatlashdi.



ERTANGI AVLOD QANDAY KONTENTNI QABUL QILADI?

Axborot oqimining tezligi, internet va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji insoniyat hayotini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi, ya’ni bugun dunyo keskin o‘zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Har bir millatning ma’naviy va axboriy makoni ko‘p jihatdan “kontent” tushunchasi orqali belgilanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, televideniye, raqamli platforma va yangiliklar saytlari millatning ma’naviy ko‘zgusi, xalqning fikr dunyosi va yoshlarning qadriyatlar ombori sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, milliy kontent masalasi oddiygina axborot oqimi emas, balki jamiyatning ertangi kunini belgilaydigan strategik resursga aylanib ulgurdi.

Shunday bir sharoitda milliy kontent yaratish va uni keng ommaga yetkazish masalasi nafaqat jurnalistlar, balki butun jamiyat oldida dolzarb vazifa sifatida turibdi. Zero, milliy kontent xalqning madaniy xotirasi, ma’naviy ildizi va milliy o‘zligining raqamli aksidir.

Milliy kontentning foydasi to‘rt asosiy yo‘nalishda ko‘rinadi:

Ma’naviy — xalqni o‘z ildiziga bog‘laydi. Ajdodlarimiz merosini zamonaviy tilga o‘girib, yoshlar ongiga singdiradi. Masalan, “Alpomish” eposi zamonaviy komiks yoki anime tarzida qayta ishlab chiqilsa, yoshlar milliy qahramonini yanada yaqinroq his qiladi hamda qaytadan kashf etadi.

Ijtimoiy — birdamlikni kuchaytiradi. Milliy kontent ko‘pincha umumxalq muhokamasi va faxriga aylanadi. Masalan, birgina “Mahallada dur-duv gap” filmi bugun ham jamiyatni birlashtiruvchi timsollardan biri bo‘lib qolmoqda. Reklama roliklarida zamonaviy obrazlarda qayta jonlantirilganda o‘zgacha ruhda tomosha qilishimiz sir emas.

Tarbiyaviy — milliy kontent yoshlarga ham, kattalarga ham qadriyatlarini singdiradi. U ertaklarda halollik va mehmi, filmlarda esa vatanparvarlik va mas’uliyatni ko‘rsatadi. Shunday qilib, milliy kontent har bir avlodga o‘ziga xos ta’sirchan tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy — sifati kontent eksport qilinadigan mahsulotga aylanadi. Bugun turk seriallari dunyo bo‘ylab millionlab tomoshabin yig‘ayotgan ko‘lsa, biz ham milliy ruhni saqlagan, ammo zamonaviy shaklda ishlab chiqarilgan film va qo‘shiqlar bilan jahon bozoriga chiqishimiz mumkin.

Milliy kontent masalasi dolzarb bo‘lsa-da, biz hali bu yo‘lda ko‘plab to’siqlar bilan yuzma-yuz turibmiz. Birinchi navbatda, ko‘pchilik ijodkorlar va kontent ishlab chiqaruvchilar milliylik tushunchasini faqat an’anaviy kiyim, qo‘shiq yoki milliy taomlar bilan cheklab qo‘yadi. Aslida esa milliy kontent millatning dunyoqarashi, qadriyati, turmush tarzi va ijtimoiy muammolarini ham ifodalab bera olishi kerak.

Ikkinchi muammo — sifat va professionallik. Ko‘p hollarda milliy kontent deb taqdim etilayotgan mahsulotlarda zamonaviy texnologiyalar, dizayn va kreativ yondashuv yetishmaydi. Natijada u na yosh avlodni, na xalqaro auditoriyani o‘ziga jalb qila oladi. Oqibatda esa milliy kontent iste’molchisi uni emas, chetdan kelayotgan xorijiy mahsulotlarni tanlashni afzal ko‘radi.

Uchinchi masala — tijoratlashuvning pastligi. Ko‘plab milliy loyihalar yaxshi g‘oyaga bo‘lsa-da, ularni monetizatsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Natijada ijodkorlar moddiy qo‘llab-quvvatlovsi qolib ketadi, loyihalar esa bir necha qadamdan keyin to‘xtab qoladi. Milliy kontent nafaqat madaniy, balki iqtisodiy kuch ham bo‘lishi lozim.

To‘rinchidan, milliy kontentning ko‘plab shakllari raqobatbardosh bo‘lishi uchun mos

tillarga tarjima qilinishi shart. Biroq bugungi kunda bu sohada kamchiliklar mavjud. Ko‘p hollarda milliy mahsulotlar faqat ichki auditoriya uchun mo‘ljallangan bo‘lib qolmoqda. Vaholanki, dunyo bozoriga chiqish, xalqaro tomoshabinga o‘zimizni tanitish uchun global mulokat tiliga moslashish zarur.

Shuningdek, milliy kontentni yaratishda ichki senzura, stereotiplar va sun’iy to’siqlar ham muammolar qatoriga kiradi. Har bir lo-yiha faqat “tasdiqlangan” qolip asosida emas, balki erkin ijodiy yondashuv vositasida yaratilishi kerak. Zero, haqiqiy milliylik tabiiylik, samimiyat va zamonaviylik bilan uyg‘unlashgan holda tomoshabinga yetib boradi. Afsuski, bugungi kunda yoshlarimiz orasida ko‘proq xorijiy mahsulotlar ommabop.



Turk seriallari, koreys dramalari, G‘arb pop madaniyati va chet el bloglari hayot tarzi yoshlarimiz dunyoqarashiga tobora chuqurroq singib bormoqda. Natijada ular asta-sekin milliy qadriyat va an’analaridan uzoqlashmoqda, ona tilining mavjei raqamli muhitda yetarlicha kuchli bo‘la olmayapti. Bu esa jamiyatimizning axboriy qaramligi xavfini tug‘diradi.

Agar biz milliy kontentni rivojlantirishga jiddiy e’tibor bermasak, kelajak avlodning ongini boshqa xalqlar makfurasi egallashi ehtimoli kuchayadi. Milliy kontent nafaqat iqtisodiy foyda, balki ma’naviy immunitet ham beradi. Uni rivojlantirish millatning o‘zini himoya qilishi, o‘zini namoyon etishi va o‘z ovozin dunyoga eshittirishidir.

O‘zbekistonning imkoniyatlari beqiyos. Qadimiy tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz merosi, boy xalq og‘zaki ijodi va san’atimiz milliy kontent uchun cheksiz manbadir. Ertaklar, dostonlar va xalq rivoyatlari zamonaviy mult-film yoki komikslar uchun tayyor ssenariy bo‘la oladi. Buyuk shaxslarimiz hayoti

— Temuriylar, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Beruniy, Bobur kabi allomalar haqida ilmiy-badiiy filmlar va podkastlar yaratish orqali yosh avlodga faxr va g‘urur tuyg‘usini singdirish mumkin. Urf-odatlarimiz, to’y marosimlari, milliy taomlarimiz, kiyim-kechaklarimiz va musiqamizni targ‘ib qiluvchi kontent esa ham ichki bozor, ham xalqaro turizm va madaniy almashinuv uchun bebaho resurs bo‘lib xizmat qiladi.

Agar biz raqamli texnologiyalar, animatsiya, 3D grafika, virtual reallik kabi vositalardan foydalansak, milliy qadriyatlarimizni jahon standartida taqdim etishimiz mumkin. Bu jarayonda davlat qo‘llab-quvvatlashi, xususi sektor ishtiroki va ijodkorlar tashabbusi birlashsa, O‘zbekistonning milliy kontenti nafaqat ichki auditoriya, balki xalqaro maydonda ham o‘z o‘rnini topadi.

So‘nggi yillarda ijobiy misollar ko‘pa-yib borayotganini ham e’tirof etish kerak, albatta. Mahalliy kinostudiyalar tomonidan tarixiy mavzudagi filmlar suratga olinmoqda, animatsion studiyalar milliy multfilmlar yaratmoqda, ijtimoiy tarmoqlarda yosh blogerlar milliy qadriyatlarini targ‘ib qilmoqda. Davlat darajasida ham turli grant va qo‘llab-quvvatlash dasturlari yo‘lga qo‘yilayotgani sohaga yangi imkoniyatlar ochmoqda. Biroq hali qilinadigan ishlar ko‘p. Eng muhimi, milliy kontent yaratishning tizimli mexanizmi ishlab chiqilishi va uzluksiz ravishda rivojlantirilishi lozim.

Milliy kontent nafaqat yoshlar ongini to‘ldiruvchi vosita, balki xalqni dunyoga tanituvchi ovozdir. Masalan, Janubiy Koreya o‘zining “Hallyu” to‘liqini orqali kino, musiqa va multfilmlari bilan dunyo bozorida katta muvaffaqiyatga erishdi. Turkiya seriallari esa butun dunyoga tarqalib, iqtisodiy, siyosiy ta’simi ham kuchaytirdi. Shu kabi misollar O‘zbekiston uchun katta tajriba maktabi bo‘lishi kerak. Biz o‘z kontentimizni global auditoriyaga taqdim etish orqali xalqaro imijimizni mustahkamlashimiz mumkin.

Hozir yoshlarning raqamli maydondagi asosiy ehtiyoji tezkor, sifati va qiziqarli kontentdir. Agar biz ularga milliy qadriyatlarga asoslangan, zamonaviy texnologiyalar yordamida tayyorlangan kontent bera olsak, ular begona madaniy oqimlarga kamroq qiziqadi. Bunda ijodkorlarning innovatsion yondashuvi, davlatning moliyaviy va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashi, xususi sektordagi mediakompaniyalar bilan hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi savol juda keskin: ertangi avlod qanday kontentni iste’mol qiladi o‘zimiznikini yoki begonalarnikini? Javobni esa bugun hal qilishimiz kerak. Chunki milliy kontent yoshlarimizning ongini tozalovchi, ularni ma’naviy immunitet bilan qurollantiruvchi, xalqimizning o‘z ovozi va qiyofasini dunyoga tanituvchi vositadir. Xalq, avvalo, o‘z tilidan, millatidan va tarixidan faxrlansa hamda himoya qila olsagina, kelajakka umid bilan qaraydi. Yoki boshqa xalqlar soyasida qolib ketishga mahkum bo‘ladi. Shu sababli har bir ijodkor, jurnalist, blogger va media sohasi vakili zimmasida ulkan mas’uliyat turibdi. Biz milliy kontentni rivojlantirish orqali nafaqat yoshlarimizni yet g‘oyalardan asraymiz, balki O‘zbekistonning ovozin yanada balandroq yangratamiz. Zero, milliy kontent ertangi kunning poydevori, xalqning ruhi va kelajaking kalitidir.

Xolboy IBRAGIMOV, akademik, Difuza SHOMALIKOVA, mustaqil tadqiqotchi